

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

# VATANPARVAR

●Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ●2023-yil 10-noyabr, №45 (3055)



**BIZ**  
HAQIMIZDA

IJTIMOY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

@vatanparvar-bt@umail.uz

• t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
• t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya



BUTUN  
UMRIM  
ARMIYADA O'TDI

4-5



IKKINCHI  
XATOGA  
IMKON YOQ!

6-7



ASKARLAR HAM  
BELLASHAR  
BUNDA

8

www.mv-vatanparvar.uz



KASBINING FIDOVISI  
QAHRAMON SHIFOKORLAR!



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING O'N OLTINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli Bosh kotib!

Anjuman ishtirokchilar!

Avvalambor, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida sizlar bilan uchrashib turganimidan behad xursandman.

O'zbekiston zaminiga xush kelibsiz!

Bugungi oly darajadagi uchrashuvimiz bizning umumi taraqqiyot yo'lida ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirishga bo'lgan qat'iy intilishimizning yaqqol dalilidir.

Bugun ko'z o'ngimizda dunyo siyosiy arxitekturasi tom ma'noda o'zgarmoqda va global qayta qurilishi sodir bo'lmoqda.

Bu murakkab jarayonlarda o'zining katta o'rniaga ega bo'lgan Tashkilotimiz davlatlari birligida hamjihat bo'lib harakat qilishi, vujudga kelayotgan xavf-xatarlarga qarshi samarali yechimlar topishi muhimdir.

"Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari" shiori ostida o'tayotgan sammitimizda siz, aziz hamkaslarim bilan ko'p tomonlama aloqalarimizni yangi bosqichga olib chiqish va eng dolzarb masalalar bo'yicha batafsil fikr almashamiz.

Barchangizga bugungi tadbirimizda ishtirok etayotganingiz va o'zaro manfaatlarni munosabatlarimiz ravnaqiga qo'shayotgan ulkan hissangiz uchun alohida tashakkur bildiram.

Fursatdan foydalanib, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyevni Tashkilotimizdagini muvaffaqiyatli raisligi bilan samimiy tabriklayman.

Ozarbayjon raisligi doirasida "Yashil o'tish va o'zaro bog'liqlik yili"da o'tkazilgan qator tadbir va tashabbuslar amaliy sherikligimizni kengaytirishga salmoqli hissa qo'shdi.

Kelgusi yilda Tashkilotimizga raislik qiladigan Eron Islom Respublikasining mintaqaviy savdoni rivojlantirish orqali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish borasidagi reja va maqsadlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilar!

Bundan roppa-rosa ikki yil oldin Ashxobod shahrida Tashkilotimizning o'n beshinchi sammitini muvaffaqiyatli o'tkazgan edik. Turkmanistondagi yig'ilishimizda qabul qilingan muhim qarorlar tuzilmamiz faoliyatiga yangi nafas olib kirdi.

Tashkilotni isloq qilish va uning samaradorligini oshirish, xalqaro maydonagi nufuzini yuksaltirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, transport vazirlarimiz qabul qilgan Toshkent deklaratasiyasining muhim ahamiyatini alohida qayd etmoqchiman.

Boku shahrida Toza energiya markazini tashkil etish va mintaqaviy elektr energiyasi bozorini yaratish masalasi bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda. Ekologiya sohasida yuqori darajadagi muloqot platformasi tuzildi. Turizm hamkorligini yanada kengaytirish maqsadida birinchi bor Tashkilot turoperatorlari tarmogi' yaratildi va Xavfsiz turizmni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Qadrli delegatsiyalar rahbarlari!

Tashkilotimiz a'zolarini mushtarak tarix va muqaddas islam dinimiz, boy madaniyat va o'xshash qadriyatlar chambarchas bog'lab turadi.

Yarim milliard aholi yashaydigan keng mintaqamiz savdo-iqtisodiy, sanoat, investitsiya va innovatsiyalar, transport sohalaridagi aloqalarini rivojlantirishda katta salohiyatga ega.

Tahillarga ko'ra, jahondagi global inqirozga qaramasdan, bizning iqtisodiyotlarimiz barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ortga qaytmas islohotlar jadal amalga oshirilayotganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz. Biz iqtisodiyotni liberallashtirish,

xalqimizning turmush darjasini va farovonligini yanada yuksaltirishga asosiy e'tiborni qaratayapmiz.

Yangi O'zbekistonda so'nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim barobar ko'paydi. 2030-yilga qadar ushbu iqtisodiy ko'rsatkichni yana ikki barobarga oshirishni mo'ljallayapmiz. Bunga, avvalo, "yashil" iqtisodiyot va zamonaqiy infratuzilmani barpo etish, xususiy sektorini rag'batlantirish va yangi ish o'rinnari yaratish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hisobidan erishish ko'zda tutilmoqda.

Bu borada xalqaro maydonda o'z ovozi va nufuziga ega Tashkilotimizning barcha a'zolari bilan samarali ishlashga tayyormiz. Zero, yaqin va yaxshi qo'shni bo'lgan mamlakatlarimiz iqtisodiyotlari bir-birini to'ldira oladi. Umumi savdo-transport koridorlari va energetika tarmoqlari esa davlatlarimizni uzviy bog'laydi. Biz yangi "o'sish nuqtalari"ni birligida izlab topish orqali kelgusida salmoqli natijalarga albatta erishamiz.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilar!

O'zbekiston Tashkilotimizning asosiy hujjati bo'lgan "Istiqbollar – 2025" ijrosini sarhisob qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Hozircha ishga solinmayotgan katta imkoniyatlarning chiqaruvchi tashhish asosida Tashkilotimizning kelajakdagisi ustuvor soha va tarmoqlarini belgilab beruvchi "Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari – 2035" konceptual hujjatini ishlab chiqish vaqt keldi, deb hisoblaymiz.

Ushbu muhim hujjatda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, o'zaro savdoni rag'batlantirish. O'tgan yili mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo ko'rsatkichi 85 milliard dollarni tashkil etdi. Bu Tashkilotga a'zo davlatlar umumi tashqi savdosining atigi 8 foizi demakdir. Afsuski, imtiyozli savdo bitimini tuzish bo'yicha ko'p yillik urinishlar kutilgan samarani bermayapti. To'siqsiz savdoni shakllantirish yo'lida hali-hamon ko'plab cheklov va muammolar saqlanib qolmoqda.

Bu holatlarni ochiq tan olishimiz va ularni ijobji tomonqa o'zgartirish uchun vaziyatga yangicha qarash bilan yondashish kerak. Shu munosabat bilan ekspertlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida savdoni soddallashtirish to'g'risidagi bitimni qabul qilishga chaqiraman.

Ushbu hujjatda tovar va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnik va notarif to'siqlarni bartaraf etish, bojxona, fitosanitariya va veterinariya tartib-qoidalarni raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, bu chora-tadbirlar orqali 2035-yilga borib o'zaro savdo hajmlarini kamida ikki barobar ko'paytirish mumkin.

Ikkinchidan, o'zaro transport-kommunikatsiya bog'liqligini kuchaytirish. A'zo davlatlarning aksariyati dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu bilan birga, Osiyo-Tinch okeani, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalarining yirik bozorlari bilan bog'laydigan va bizning hududlarimiz orqali o'tadigan transkontinental transport yo'laklari salohiyatidan to'liq foydalanshimiz zarur.

Kelgusida "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" va Transafg'on multimodal yo'llarining ishga tushirilishi barcha a'zo davlatlar manfaatlariga mos keladi.

Toshkentda 2-noyabrda bo'lib o'tgan transport vazirlarining yig'ilishida "O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – Turkiya" transport yo'lagini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatga boshqa a'zolarni ham qo'shilishga, o'zaro tarif va yig'imlarni maqbullashtirishga chaqiraman.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Ozarbayjon va Turkiya bilan yuk tashish hujjatlarini

raqamlashtirdi, shuningdek boshqa davlatlar bilan bunday loyihibar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi zamonaqiy tizimlarni keng joriy qilish hamda samarali muvofiqlashtirish uchun Toshkent shahrida Tashkilotning Raqamli transport va bojxona ofisini tashkil etish tashhabbusini bildiram.

Uchinchidan, sanoat kooperatsiyasi hamda ishbilarmonlik aloqalarini faollashtirish, industrial xablarini shakllantirish.

Biz o'zaro investitsiyalar oqimini ko'paytirish, ularni himoya qilish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo'yicha Qo'shma harakatlar dasturini ishlab chiqib, Tashkilotimiz Kotibiyatiga taqdim etdik. Mazkur hujjatda kimyo, energetika, geologiya, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika va qurilish sohalarida yangi qo'shma loyihibarlar ilgari surish maqsad qilib qo'yilgan. Bu ezgu yo'lida Tashkilotning Savdo va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish tarafidormiz.

Kecha Toshkentda o'tgan Savdo-sanoat palatalari va ko'plab kompaniyalarimiz rahbarlari ishtirokida beshinchi biznes-forum xususiy sektorda katta salohiyatga ega ekanimizni yaqqol ko'rsatdi. Biz Tashkilotimiz doirasida hududlararo sanoat ko'rgazmasini tashkil etish va uning dastlabki tadbirini 2024-yilda yurtimizda o'tkazish taklifi ilgari suramiz.

To'rtinchidan, energetika xavfsizligini kafolati ta'minlash. Milliy energetika strategiyalarini uyg'unlashtirish, mintaqalararo energiya resurslarini uzatish tarmoqlarini rivojlantirish, "yashil" energetika texnologiyalarini keng joriy etishning ahamiyati oshmoqda.

Biz Tashkilotning energetika sohasida hamkorlik strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz. 2030-yilgacha 25 gigavatt quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratishni va balansimizda ularning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz. Shu yilning o'zida 2 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushiryapmiz. Shuningdek, "yashil vodorod" ishlab chiqarish sohasida ham ilk qadamlarni qo'ymoqdamiz. Ushbu yo'nalishlarda barcha davlatlar bilan ochiq muloqot va tajriba almashishga tayyormiz.

Hamkorlik masalalarini batafsil muhokama qilish va ishlarni tizimli asosda olib borish uchun Tashkilotimiz doirasida alohida Energetika vazirlari kengashini ta'sis etishni taklif etamiz.

Beshinchidan, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha aloqalarini jadallashtirish. Hozirgi vaqtida bizning davlatlarimiz bu o'tkir muammolarning og'ir oqibatlariga duch kelmoqda. Muzliklarning erishi, suv resurslari taqchilligi, cho'llanish, chang bo'ronlari, tuproq yemirilishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi jarayonlar qattiq xavotir uyg'otmoqda.

Tuzilmamiz doirasida Ekologiya masalalari bo'yicha yuqori darajali platforma yaratish bo'yicha g'oyamizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun tashakkur izhor etaman. Uning birinchi anjumanini 2024-yili Samarqand iqlim forumi doirasida tashkil etishga tayyormiz.

Shuningdek, kelgusi haftada yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan huquqqa, ya'ni o'zining mustaqil davlatini barpo etish huquqiga ega, degan qat'iy pozitsiyamizni yana bir bor bildiramiz.

Oltinchidan, turizm sohasida hamkorlikni kuchaytirish. Yaqinda 140 dan ortiq davlat ishtirokida Samarqanda bo'lib o'tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasi mintaqamiz sayohlik salohiyatiga butun dunyo e'tiborini jaib etish borasida tarixiy voqe'a bo'ldi.

Bugungi kunda Tashkilot makonida YUNESKOning 90 ga yaqin Butunjahon merosi obyektlari joylashgan bo'lib, mamlakatlarimizga har yili salkam 80 million xorijiy sayohlik buyurmoqda.

Transchegaraviy yo'nalishlar tobora ommalashayotganini hisobga olib, qo'shma turistik marshrutlarni joriy etish hamda "Ipak yo'li" sayohlik brendi ostida umumi sayohlik dasturlarini ko'paytirishni taklif etaman.

Tashkilotimiz Kotibiyati huzurida a'zo mamlakatlarning turizm ma'muriyatlarini va yetakchi ekspertlardan iborat alohida Turizm bo'yicha maslahat qo'mitasini tashkil etish taklifini bildirmoqchiman. Uning ilk uchrashuvini kelgusi yili Tashkilotimizning turizm poytaxti deb e'lon qilingan Shahrisabz shahrida o'tkazishga tayyormiz.

Shuningdek, a'zo davlatlarni Samarqanda ochilgan Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasi imkoniyatlaridan unumli foydalishga chaqiramiz.

Yettingchidan, madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirish orqali do'st xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish. Har yili mamlakatlarimizda navbat bilan Madaniyat, san'at va kino haftaliklarini o'tkazib borish, yoshlarning ijodiy festivallari va innovatsion hamkorlik platformasini yo'Iga qo'yish, fundamental ilmiy yo'nalishlarda o'zaro hamkorlikni kuchaytirish aloqalarimiz rivojiga kuchli turki bag'ishlaydi.

Hurmatli sammit qatnashchilar!

Global tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan Yaqin Sharqdagi Falastin-Isroi urushi barchamizda katta tashvish uyg'otmoqda. Ming afsuski, bu qonli nizo oqibatida, avvalo, tinch aholi vakillari, ayniqsa ayollar, bolalar va keksalar ko'plab qurban bo'lmoqda. Urushning mintaqasi bo'ylab yoyilib ketish xavfi tobora real tus olmoqda.

Qarama-qarshilikning keng ko'lamli nizoga aylanib ketishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz tomonlarni zdulik bilan harakatlarni to'xtatishga, tinch muzokalarini boshlash, oqilona murosaga kelishga chaqiramiz.

Falastin xalqi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan huquqqa, ya'ni o'zining mustaqil davlatini barpo etish huquqiga ega, degan qat'iy pozitsiyamizni yana bir bor bildiramiz.

Shuningdek, bugungi sammit Tashkilotimiz a'zolaridan biri bo'lgan Afg'oniston ishtirokisiz o'tayotganiga diqqatingizni qaratmoqchiman.

Asrlar davomida bizga yon qo'shni bo'lgan ko'pmillati Afg'oniston xalqini bugungi murakkab muammolari qarshisida yolg'iz qoldirib bo'lmaydi. Ushbu mamlakatni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol jalb etish barqaror taraqqiyotimizning ajralmas va zaruriy shartidir.

Barchangizni afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishni ko'paytirishga, ushbu mamlakatdagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni jamoaviy mas'uliyat va maqbul mexanizmlar asosida hal etishga chaqiramam.

Hurmatli hamkasbalar!

Nutqimning yakunida alohida ta'kidlamoqchimanki, bugungi tarixiy sammit va uning natijalari Tashkilotimizning samarali va ta'sirchan tuzilmaga aylantirishga, ko'pjirrali sherikligimizni yangi marralarga olib chiqishiga ishonaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

# SIZ, SINO AVLODI, TEMURBEK NASLI

*Harbiy shifokorlik mardlikdir asli,  
Siz, Sino avlodи, Temurbek nasli,  
Tibbiyat olamin g'ururi, faxri,  
Harbiy shifokorlar fidoyi zotlar.*

Eng mashaqqatli, eng sharafli kasblardan biri, bu shifokorlikdir! Oliy ta'lim dargohida eng uzoq vaqt tahlil oladigan, soha sirlarini eng uzoq o'zlashtiradigan ham shifokordir. "Shifokor – hamisha talaba" degan naql bejiz dunyoga kelmagan. Negaki inson salomatligini asrashga daxldor bo'lgan, bu soha doim o'qib-o'rganish, tajriba va malakani talab etadi. Kun-u tun bedorlik, fidoyilik ularning hayot tarziga aylangan, desak, xato bo'lmash. Shifokor bir joyda faoliyat yuritishi mumkin, ammo u ko'p qavatlari uysa yashaydimi, mahallada istiqomat qiladimi, nafot istab eshigini qoquvchilar doim topiladi. Bir so'z bilan aytganda, hakim ahli borki, dardiga darmon izlab, javdirab turgan nigohlarga umid baxsh etuvchi sehrli qo'llar sohibidir.

Harbiy shifokorlar haqida so'z ketganda esa bir haqiqatni ta'kidlash joiz. Ular zimmasidagi burch, majburiyat va mas'uliyat ikki karra yuqorida. Ularning ilkida Gippokrat qasamyodi bilan birga Vatanga qasamyod onti mujassam. "Sodiq xizmatlari uchun" medali sohibi tibbiy xizmat mayori Jahongir Boltaboyev mana shu sharafli sohaning navqiron, g'ayratli vakillaridan biri. U Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalida lor shifokori sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

## BOLALIKDAN MAQSADGA AYLANGAN ORZU

Inson bolalikdan orzular qanotida ulg'ayadi. Kasb-hunar ostonasiga yetgunga qadar ne-ne sohalarni orzu qilmaydi deysiz. Uning kasb-hunar tanlashida atrofidagi muhitning katta ahamiyati bor. Jahongirning hayotida ham bu muhim o'rinn tutgan. E'tiborlisi, u bolalikdan orzu qilgan soha tomon dadil intilib, maqsadi ro'yobida qad rostlagan omadli insonlardan.

Jahongir ukasi Islomjonning qo'lidan tutgancha onasi Ra'no opa ishlayotgan tibbiyat kollejiga kirib keldi. Aka-ukaga bu yerdagi hamma narsa yoqadi. Ayniqsa, oppoq xalat kiygan o'quvchilar, sinfxona oxirida o'trib, onalarining dars berishini kuzatish, kollej laboratoriyasidagi fizik tahlillarda ishtirok etish, o'yinqaroq bolakaylar uchun juda qiziq. To'g'ri, ular bu dargohga kam kelishadi. Qachonki,

otasi Komiljon aka xizmatda band bo'lib, ikkisi uysa yolg'iz qolgandagina onalarining ko'z o'ngida bo'lishi uchun kollejga kelib, Ra'no opaning ishi tugashini kutishadi...

Tibbiyat kollejidagi o'quvchilarning oq xalatiga havas ila termilgan tiyrak bolakay – Jahongirning ko'ksiga o'sha onlar shifokor bo'lish orzusini muhrlagan bo'lsa, Ra'no opaning salomatligida ma'lum muddat o'zgarish bo'lishi, onasining dard ila kurashishi yigitchaning maqsadini



yanada mustahkamladi. Qolaversa, tog'asi Shodmon aka ham shifokor, kardiolog.

Shunday qilib, Jahongir maqsad sari dadil qadam tashladi. Yettingchi sinfdan Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan litseyda tahlil ola boshladи. G'aybulla Po'latov, Abdulhamid Rahmatov kabi bir qator talabchan va qattiqqo'l ustozlari sabab fanlarni yaxshi o'zlashtirgan yigitcha Andijon davlat tibbiyat instituti talabasi bo'ldi.

## HARBIY SHIFOKORLIK SARI DADIL QADAM

Barcha tibbiyat xodimlariga ham harbiy shifokor bo'lish nasib etmaydi. Jismoniy tayyorgarlik sinovlari, salomatlik tekshiruvi hamda ma'lum imtihonlardan o'tsagina, harbiy tibbiyat fakulteti kursantlari safida soha sirlarini o'zlashtirishi mumkin. Harbiy tibbiyat xodimi bo'lgandan keyin esa shifokorlik bilan birga harbiy majburiyatlarni ado etish, buyurilgan joyda xizmatda bo'lish, har qanday shart-sharoitda vazifasini uddalash talab



etiladi. Buni fidoyilik deyishadi. Bir so'z la aytganda, nafaqat kasb mahoratini oshirib borish, balki mas'uliyat, majburiyat, burchga sadoqat harbiy shifokorlar uchun dasturilamaldir.

– Harbiy shifokor bo'lishga qaror qilganimda ota-onam maqsadimni qo'llab-quvvatlashdi, – deydi Jahongir vazifasi haqida so'z yuritar ekan. – Tibbiyat institutida beshinchи kursni tamomlaganimdan keyin Toshkent tibbiyat akademiyasi huzuridagi harbiy tibbiyat fakultetiga (*hozirda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyat akademiyasi*) o'qishga kirishga tuyassar bo'ldim.

Iste'fodagi tibbiy xizmat polkovniklari Orziql Nurullayev, Adham Qodirov, Jahongir Sobirov kabi bir qator harbiy tibbiyotda nom qozongan ustozlardan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalar faoliyatimda katta o'rinn egallab kelmoqda.

– Tibbiy xizmat mayori Jahongir Boltaboyev harbiy tibbiyat fakultetining eng iqtidorli kursantlaridan biri bo'lgan, – deydi

Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyat akademiyasi harbiy shifokorlarni tayyorlash fakulteti boshlig'i, tibbiy xizmat polkovnigi Komiljon Eshquvvatov. – U o'zining g'ayrati, bilimdonligi, amaliy va nazariy mashg'ulotlarda faolligi bilan ajralib turardi. Shu sabab tibbiy xizmat ofitseri sifatida qayerda xizmatda bo'lmashin, o'z o'rninga ega bo'lyapti. Mustaqilligimizning 32 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga ko'ra, "Sodiq xizmatlari uchun" medaliga sazovor bo'lgani ham zahmatli xizmati samarasidir.

## SINOVLAR, SABOQLAR, ETIROFLAR

Jahongir Boltaboyev yosh bo'lishiga qaramay, harbiy shifokor sifatida bir qator harbiy qism va muassasalarda shijoat ila xizmat qildi. Termiz va Qarshi garnizonlari harbiy qism tibbiy xizmat punktlarida tibbiy xizmat boshlig'i, Mudofaa vazirligi markaziy harbiy tibbiy komissiya davolash diagnostika ishlari inspeksiysi katta inspektori, Mudofaa vazirligi tibbiy ta'minot boshqarmasida davolash profilaktika bo'limi katta ofitseri vazifalarida faoliyat yuritdi.

Yosh shifokor faoliyatini davomida AQShning Texas shtatida harbiy shifokorlarni tayyorlash kursida olti oy davomida, shuningdek Montana shtatida harbiy tibbiy ta'minot yo'nalishida malaka oshirib qaytdi.

Jahongirga qayerda, qanday vazifa yuklatilmasin, bor bilim va mahoratini ishta soldi, sinovlarda chekinmadi.

Joriy yilning fevral oyida Turkiyada sodir bo'lgan zilzila minglab insonlarning yostig'ini quritdi. Ularga yordam ko'rsatish uchun ko'plab davlatlar oyoqqa turdi. Xususan, bizning davlatimiz ham qardosh elga yordam qo'lini cho'zdi. Tibbiy xizmat mayori Boltaboyev zilzila talafotlarini bartaraf qilish uchun Mudofaa vazirligi harbiy mobil tibbiy otryad tarkibida bo'ldi. Bir oy davomida 4 mingdan ziyod kishi salomatligini nazorat qilish, davolash hamda 420 ga yaqin bolani tibbiyko'rikdan o'tkazishda faol ishtirok etdi.

Jahongir ayni damda gospitaldagi mobil tibbiy otryad jarrohlik bo'linmasi ordinatori sifatida ko'plab viloyatlarda bo'lib, chekka hududlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari hamda xalqimizga xizmat ko'rsatayotganiga guvohniz. Shuningdek, o'z yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

– Men har qadamda ustozlardan minnatdor bo'laman, – deydi u faoliyatini haqida to'xtalib. – Litsey va tibbiyat institutida har tomonlama tajribali, bilimdon ustozlardan saboq oldim. Biz Tibbiyat xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi shifokorlari bilan ham doim aloqada bo'lib turamiz. Tibbiyat fanlari doktori, professor Sayiddin Aripov, oliy toifali shifokorlar Said Rasulov, Ravshanbek Umarov kabi ustozlardan kasbiy mahorat sirlarini o'zlashtirishga intilaman. Bir so'z bilan aytganda, erishgan yutuqlarimda o'quvchiligidan tortib, shu kungacha bo'lgan barcha ustozlarim va ota-onamning tengsiz ulushi bor.

Har so'zida ota-onasi va ustozlardan minnatdor Jahongir uch o'g'il – Odiljon, Olimjon va Alining mehribon otasi. Umr yo'Idoshi Gulhayo Abdurahmonova o'zi kabi shifokor. U ham Markaziy harbiy klinik gospitalida faoliyat yuritadi. Ajab emaski, ularning farzandlari ham kelajakda ota-onalari kasbini tanlab, shifokorlar sulolasiga zamin yaratса. Zero inson dardiga davo bo'lishdan ortiq baxt bo'limasa kerak. Tibbiy xizmat mayori Jahongir Boltaboyev zabit etadigan yuksak dovonlar, erishajak zalvarli yutuqlar esa hali oldindа. Bu zahmatli va sharafli yo'lda unga omad tilab qolamiz.



**General-polkovnik**

**Rustam O'rmonovich AHMEDOV,  
O'zbekiston Respublikasining  
birinchi mudofaa vaziri**

1943-yil 10-noyabrdan Farg'onan viloyati Bag'dod tumanida tug'ilgan.

Harbiy xizmatni 1962-yili Toshkent olis tank qo'mondonlik bilim yurtida kursantlikdan boshlagan. 1965–1969-yillarda Boltiqbo'yida, Polshada, Ukrainada, 1970-yildan Turkiston harbiy okrugida xizmat qilgan. 1985-yilda Malinovskiy nomidagi zirhli tank qo'shini harbiy akademiyasini bitirgan. 1986-yil dekabr oyida Toshkent viloyati fuqaro muhofazasi boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlangan.


1991-yil 10-sentabrda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri etib tayinlangan.

1997-yildan 2000-yil nafaqaga chiqqunga qadar favqulodda vaziyatlar vaziri lavozimida faoliyat yuritgan.

2018-yil Prezident Shavkat Mirziyoyev farmoniga binoan, "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.



# BUTUN UMRIM ARMIYADA O'TDI...



**BOLALIGIM** ko'pchilik qatori qishloqda o'tgan. Otam raykom sekretari edi, dastlab Qishloq xo'jaligi texnikumida o'qiganman. Keyin armiya, tankchilar o'quv yurti... U yerni bitirib, Boltiqbo'yida, Polshada, Lvovda xizmat qildim turli lavozimlarda. Sakkiz yildan keyin Samarqandga keldim. U yerdan Toshkentga... 90-yillarda Jigaristondagi zilzila, Bo'ka va boshqa hududlardagi mojarolar... murakkab davr edi. Islom Karimov bilan shu hodisalar vaqtida tanishgandim.

Toshkent viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasida xizmat qildim. Karimov "O'sha polkovnikni topinglar!" debdi. Meni bexosdan devonga chaqirishdi. Prezident yoniga kirdim. "Keling, o'tiring!" dedi. O'tirdim. O'sha vaqtidagi voqealar haqida ko'p gapirdi, fikrlarimni eshitdi, "Nima deysiz, biz sizni mudofaa vaziri etib tayinlasak?" dedi. Men bu haqda o'ylaganim ham yo'q edi. Chunki generallar ham ko'p edi vazir bo'laman degan. Xuddi boshimga og'ir bir yuk bosilganday bo'ldi...

**...OLIY SOVETDA** hamma kattalar, nima deb doklad qilishni bilmayman, shuning uchun prezidium a'zolari oldiga oxirgi bo'lib kirdim. Yig'ilish "Mustaqil davlatning o'z armiyasi bo'lishi kerak", degan gap bilan boshlandi. "O'h... birinchi mendan boshlaydi", dedim. "Mana shu bolani tavsiya qilaman. Ikkita diplomni bor, harbiy bilim yurtida ham, harbiy akademiyada ham o'qigan. Polkovnikgacha tez o'sgan, keyin to'xtagan. Chunki o'zbekda. Nima deysiz, Erkin aka?" deyishdi. U kishi ma'qulladi. Keyin ikki-uchta odam chiqish qildi, mening to'g'rimda. Tashqariga chiqishim bilan rasmimni so'rashdi. Rasmni qattan olaman. Bir amallab kechasi bo'lsa-da, olib borib berdim. Ertasigayoq gazetalarda chiqdi. Shunday qilib, mudofaa vaziri bo'ldim.

O'shanda harbiy komissariatlarni respublika ixtiyoriga o'tkazib, sobiq Ittifoq armiyasiga askar yuborishni to'xtatish, boshqa respublikalarda xizmat qilayotgan o'zbekistonlik askar va ofitserlarni qaytarish, O'zbekiston hududida joylashgan barcha harbiy garnizon va harbiy qismalarni

respublika tasarrufiga o'tkazish birinchi galadagi vazifalarim edi.

**XIZMAT YUZASIDAN** Moskvaga bordim. Borsam, ular juda qarshi. "Sizlarga Milliy gvardiya nimaga kerak? Senga general unvonini beramiz, tamom! Yuraver, nima qilasan Milliy gvardiyani?" deydi. Men "Bu masala ham defakto, ham deyura... sizlar hal qilmaysizlar buni, kerak bo'lsa, do'ppida ham qo'mondonlik qilaveramiz. Biz mustaqil davlatmiz!" dedim.

Xullas, Moskvadan keldim. Milliy gvardiyani tuzdik. Hali Turkiston harbiy okrugi mavjud edi. Davlat rahbari aytardiki, bulardan ehtiyoj bo'lgin, deb. Shu zamonda qurol-yarog' va harbiy texnikani olib chiqib ketishga juda ko'p urinishgan. Ularning ko'pchiligini ushlab qamadik ham. Shu davrda Qurolli Kuchlarga tegishli har qanday mol-mulkning xususiyashtirilishi taqiqlanishi to'g'risida hukumat qarori qabul qilindi. Xullas, texnikalarni olib qoldik.

**TURKVO** qo'mondonining oilasi uchun 5 ta avtomobil ajratilgandi. Men

aytdimki, unga "Nima qilasan beshtani? Hammangga 11 ta mashina beraman, 2 ta senga". Nimaga, degan savol bo'ldi. "Seniki yo'q bu yerda, bular O'zbekistonni, davlatni", dedim. Har ko'rishganda, "Iye, haliyam ketmadingmi, qachon ketasan?" deyman. Muttaham qo'mondon edi Kondratyev.

1992-yil 14-yanvar kuni sessiya bo'ldi. O'sha sessiyada respublika hududida joylashgan harbiy qismalar, olyi harbiy o'quv yurtlari va boshqa harbiy tuzilmalarni O'zbekiston tasarrufiga o'tkazish haqida qaror qabul qilindi. Keyinroq Harbiy havo kuchlari, Havo hujumidan mudofaa qo'shini bizning tasarrufimizga o'tdi. O'shanda Kaspiy dengizidan to Balkashgacha bo'lgan hudud Havo hujumidan mudofaa qo'shini bizning nazorat zonasini edi.

**MARKAZIY OSIYODA** eng kuchli armiya bizda edi. 500 dan ortiq uchish apparatimiz, harbiy samolyotlar, 5 mingtacha tank bor edi. Boshqalarda deyarli hech nima qolmagandi.

Ko'pchilik ketish payiga tushdi, o'zim borib, ular bilan uchrashdim.

Oilalari bilan ham. "Bolalaring hammasi bog'chaga boryapti, pul to'lamayapsan, xotining ishlayapti. Oylit olyapsan, ta'minot joyida. Nima qilasan u yodqa? Sen boradigan joyda it egasini tanimaydi hozir", dedim. Shunaqa qilib ko'p mutaxassislarini olib qoldik.

**FARG'ONADA** 105-havo desant diviziysi bor edi. Shu harbiy qismni olib chiqib ketishga harakatlar bo'ldi. Ittifoqning quruqlikdagi qo'shinlari qo'mondoni armiya generali Vladimir Magamedovich Semyonov degani kelib, "105-diviziyani olib ketishim kerak", deydi. Men aytdimki, "U yerda strategik qurol bormi? Sharhnomada bu haqda gap yo'q. Bu harbiy qism allaqachon O'zbekistonni bo'lgan", dedim. "Nima, o'zbeklar parashyutda sakray oladimi?" dedi mensimay. O'zbeklar parashyut bilan sakrashni allaqachon boshlagan, deb javob qilsam, "Jang bilan olamizmi?" deydi. "Urinib ko'r-chi", dedim. Ko'rlik, maqsadiga yetolmaydi. Keyin "Prezident bilan uchrashsam bo'ladimi, sovg'am bor" dedi. Bordi, kirdi, sovg'asini berdi, keyin samolyotga solib, jo'natib yubordik. Shunaqa voqealar ham bo'lgan.

**BIR KUNI** meni davlat rahbari chaqirib aytdiki, Podmoskovyyeda 270 o'zbekistonlik bu yerda xizmat qilmaymiz, deb to'polon qilyapti ekan. Borib, shu masalani hal qilib kel, dedi. Bordim. Qo'mondoni bilan uchrashdim. Moskva yonidagi chiroyli joy, o'rmon ichida, yam-yashil... Ular bilan qism klubida uchrashdim. "Biz O'zbekiston fuqarosimiz, o'zimizning yurtimizda xizmat qilamiz", deyishdi. O'sha yerdan davlat rahbariga qo'ng'iroy qildim. Olib kelaver, dedi Prezident. Keyin ularni samolyotda qaytarib olib keldim. Bitta rus bolaga sen nimaga ketyapsan, desam, "Men angrenlikman, Vatanimda xizmat qilaman", deydi. O'shanda Uzoq Sharqdan va boshqa joylardan juda ko'p harbiy xizmatchilar qaytib kelgan. Biz Vatanim O'zbekiston deganga chaqiruv berardik.

**TA'MINOTDA** askarlarning ovqatlanishida muammolar bor edi. Har bir askarga kuniga 800 gramm kartoshka va boshqa shunga o'xshashlar berilardi. Mutaxassislariga, dietologlarga oziq-ovqatlar kaloriyasini o'rganishni, taomnomaga o'zimizning poliz mahsulotlari, milliy taomlar qo'shish kerakligini aytdim. Har bitta stolda meva-cheva, qovun-tarvuz bo'lsin, dedim. Har bir askarga go'shtdan tashqari 150 gramm baliq berardik. Hamdo'stlik davlatlari orasida birinchi bo'lib biz harbiy kiyimni o'zgartirdik. Butun armiyani boshqatdan kiyintirdik.

**HARBIY TA'LIM** islohotinida boshlaganimizda, O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasini tashkil etish vaqtida uch kishini – Mahmudovni Moskvaga Frunze akademiyasiga, Surganova Bronetank akademiyasiga va yana bir ofitserni Bosh shtab akademiyasiga jo'natganman. Bu yerda boshqa davlatlarning harbiy kadrlarni tayyorlash dasturlarini ham o'rganganmiz. Keyin ana shu xulosalar asosida o'z dasturimizni ishlab



chiqqanmiz. Bu 1993-yil bo'lgan edi. Harbiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha fundamental ishlar olib borilgan. Qisqa yillarda barcha mutaxassislarini o'zimizda tayyorlashga o'tganmiz o'shanda.

**HARBIY UCHUVCHILAR** kerak edi bizga. Sovet Ittifoqi Qahramoni general-polkovnik Viktor Kot degan do'stim bor edi. Keluvdi, unga aytdimki, "Men senga L-39 o'quv samolyotini beraman. Sen bizga Achinskiy bilim yurti qisqaryapti-ku, o'shaning jihozlarini berasan", dedim. Shunday qilib, Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtini tashkil qilganmiz. Eng tajribali uchuvchilarni o'qituvchi qilib tayinladik.

**BILASIZMI**, uchuvchilar uchun nima muhim? Uchish soati. Bizning uchuvchilar yiliga 130, 170 soat uchardi o'sha yillarda. Rossiyyada esa 20 soat. Shuning uchun uchuvchilarimiz tajribali edi. Hozir harbiy aviatsiya bilim yurti Jizzaxdan Qarshiga ko'chirildi. Uning hozirgi boshlig'i polkovnik Hamroyev birinchi bitiruvchilarimizdan biri. Judayam bilimli, tajribali, hamma qiruvchi samolyotlarda mahorat bilan ucha oladi. Biz nima qillardik, kursant bitirayotganda bosqichma-bosqich murakkab samolyotlarga o'tkazardik. O'sha paytda bizning 500 dan ortiq uchoqimiz – samolyotimiz bor edi. Ularni shu samolyotlarning hammasidan o'tkazardim. Mana hozir shu bilim yurtini bitirgan uchuvchilar Harbiy havo kuchlarimizning faxri – oliy toifali mutaxassislar hisoblanadi.

**HARBIY XIZMATCHI**, avvalo, vatanparvar bo'lishi kerak. Har bitta askar, ofitserda Vatanga ishonchi, muhabbati bo'lishi kerak. U kimga xizmat qilaman, kimga otaman, nima uchun otaman, degan savollarga javobni biliishi kerak, derdim. Mana shularni bilmaguncha unday odam bilan ishlash xom ish. Qurol va texnikani o'rganish, professionallik shundan keyin bo'ladi. Shuning uchun eng birinchi vijdonli bo'lishni, vatanparvar bo'lishni talab qilardim.

**HAYOTDA** turli hodisalar bo'ladi. Hammayam adashadi, xatosini anglaydi, to'g'rilaydi. Bir voqeа bo'lgandi. Bitta ofitserga gilam olib kelib berishibdi. Chaqirdim. Uni lavozimidan

## — 80 yosh —

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti jamoasi O'zbekiston Respublikasi birinchi mudofaa vaziri general-polkovnik Ruštam O'rmonovichni 80 yoshi bilan qutlaydi.

olib, uzoq garnizonga boshqa vazifaga tayinlab jo'natdim. Uzoqda, cho'lda edi o'sha harbiy qism. Mening jazo choralarimdan biri shu edi. O'sha yerda xizmatni o'tab tarbiyalanardi. Odamning taqdirini o'zgartirib, sindirib yuborish juda oson... bunday paytda chuqur o'ylash kerak, uning ham bola-chaqasi bor. Men yordamchilarimga, muovinlarimga aytardimki, lavozim juda katta mas'uliyat talab qiladi, ehtiyojkor bo'lishing kerak. Ertabun "Kreslo"dan ketganingdan keyin xalqingga, odamlarga chin ko'z bilan qarashningi o'yla, halol bo'l, yuzing yorug' bo'lsin, derdim. Mana shunaqa gaplar...

**BIZNING** barcha kitoblarimiz, qo'llanmalarimiz va boshqa yo'riqnomalar hammasi rus tilida edi. O'zbek tili – davlat tiliga o'tishda ko'p mehnat qildik. Mutaxassislar bilan Umumharbiy nizomlarni, harbiycha buyruqlarni ishlab chiqdik.

1995-yilda ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 50 yilligida harbiy parad o'tkazdik. Prezident xavotirlanma, agar tanking o'chib qolsa, boshqa texniklarining chetga olib qo'yaverasan, degandi. Shunday chiroyli paradni o'tkazgannim o'shanda. Buyruqlar hammasi o'zbekcha bo'lgan. Rossiyanadan generallar keluvdi, ko'zlar yoshlanuvdi ularning.

Bizda, Mudofaa vazirligida Hamdo'stlik davlatlari orasida birinchi bo'lib mudofaa vazirining tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanuvchi,

shaxsiy tarkib bilan ishslash bo'yicha o'rinosari lavozimi joriy qilingandi. Askarlarning tarbiyasiga jiddiy qarash birinchi vazifam edi. Milliy armiyamiz faoliyati, kuch-qadrati, qo'shinlarda xizmat qilayotgan yigitlarning fidoyiligini targ'ib qilish, xalqimizning Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ishonchini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarini bosh targ'ibotchi, deb bilardim. Shuning uchun 1992-yil "Vatanparvar" gazetasini tashkil qildik. Keyinroq kino va televide niye rejissori Shavkat Mahbubovni chaqirib, "Vatanimga xizmat qilaman!" deb nomlangan ko'rsatuvni tayyorlash haqida gaplashdim. Shu ko'rsatuvni siz boshlab, davom ettirasiz, dedim. Bu ko'rsatuvning har bir sonini ko'rardim. Harbiy qurilish sohasidagi o'zgarishlarning, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqqa yetkazilishi, o'sib kelayotgan yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini, ularning harbiy xizmatga qiziqishlarini oshirish juda muhim edi biz uchun.

**BUGUN** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning armiyaga e'tiborini, Qurolli Kuchlarimizdagagi tub o'zgarishlarni ko'rib, mammun bo'lamon. Qo'shinlarimiz eng zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika vositalari bilan ta'minlangan. Bu ishlar oson emas, albatta. Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalini ko'ring, dunyoning manaman degan harbiy gospitallari bilan tenglashadi. Bularning hammasi Prezidentimizning tashabbusi va ko'rsatmalari bilan bo'lyapti. Islohotlarni davom ettirish, yanayam kuchli bo'lishimiz kerak.

Milliy armiyamizning oyoqqa turishiga juda ko'p odam hissa qo'shgan, ularning ko'pchiligi vafot etib ketdi, Xudo rahmat qilsin. Bugungi qo'mondonlar orasida ham shogirdlarim bor. Ularga, qo'shinlarda muqaddas burchini o'tayotgan izdoshlari imizga – askar, serjant va ofitserlarga muvaffaqiyat, xizmatlarida omadlar tilayman.

**ORTGA QARASAM**, vaqt juda tez va tig'iz o'tibdi. 80 yoshga ham kirib qo'yibman. Butun umrim armiyada o'tdi, bundan roziman. Hozir ham o'yayolim armiyada, Qurolli Kuchlarda. Milliy armiyamizning bugungi kuch-qadratini ko'rib, sa'y-harakatlarimiz zoye ketmaganidan xursand bo'lamon.

«Vatanparvar» muxbirini Furqat ERGASHEV yozib oldi.



# IKKINCHI XATOCA

Harbiy xizmatchilarning navbat bilan bo'shliqqa sakrashini kuzatish maroqli. Yigitlarning oppoq parashyutda osmon-u falakdan bir parcha bulut misol yerga ohišta yaqinlashib kelayotganini tomosha qila turib, qor parchasining zaminga singib ketayotganini his etasiz. Ha, daſtlab ona zaminda turib, yigitlarning osmondan tushishini kuzatganimizda tuyg'ularimiz o'zgacha edi. Vertolyotda ular bilan yonma-yon ayni tushish chizig'ida ekanmiz, hislarimiz, tasavvurlarimiz daſtlabkisidan tubdan o'zgarib ketdi.

Keling, yaxshisi hammasini boshidan boshlasak. Ijodiy jamoamiz bilan birgalikda Toshkent harbiy okrugi "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida nazariy va amaliy sinovlardan o'tgan harbiy xizmatchilar ishtirokida navbatdagi parashyut bilan sakrash mashg'ulotlariga yo'l oldik. Belgilangan manzilga yetib kelganimizda harbiy xizmatchilar dastlab havoda bajaradigan xattiharakatlarni, yerda turgan holatda qayta va qayta takrorlab bajarayotgandi. Dastavval ular bajarayotgan harakatlар qiziq tuyuldi. Shuning uchun yonimdagি sherigimdan nima uchun harbiyalar bir xil harakatni qayta qayta bajarayotganini so'radim:

"Chunki parashyut bilan sakrashda ikkinchi marta xato qilishning imkoniy yo'q!"

Shu bois ham ular sakrash avvalida to'rt bosqichli nazoratdan o'tar ekan. Harbiy xizmatchilar uchoqqa chiqish oldidan "Parashyut kiyish chizig'i", "Guruh komandiri tekshiruv chizig'i", "Vzvod komandiri tekshiruv chizig'i", "Havo-desant ofitseri tekshiruv chizig'i" kabi bosqichlardan o'tishdi. Har safargi amaliy mashg'ulotlardan oldin o'tkaziladigan mazkur yerdagi tayyorgarlik bosqichlari mana shunday qiziq jarayonlarga boy bo'lidi. Guruh komandiridan so'nggi ko'rsatmalarni olgan yigitlar darhol jangovar vazifani bajarishga kirishdi.

Desantchilar start chizig'ida vertolyot tomon harakatlanib, uchoqda havoga ko'tariladi. Ular bo'linmasi va o'zlariga yuklatilgan jangovar vazifadan kelib chiqib, 600 va 1 500 metrgacha bo'lgan balandlikdan parashyutlar bilan sakraydi.

Sakrash amaliyotini bajarganlar orasida ilk bora parashyutda sakragan harbiy xizmatchilardan tortib, o'z ishining haqiqiy ustasiga aylanganlar ham bo'lidi.

– Shu paytga qadar 25 dan ortiq amaliy sakrash mashqini bajarganman, – deydi katta serjant Safarali Xolboyev. – Ammo yashirmayman, necha marotaba parashyut bilan sakraganingizdan qat'i nazar, har gal kuchli hayajon bo'ladi. Asli qo'rquv va hayajon hammada bo'ladi.

Ular ustidan g'alaba qozonsangiz, marra sizniki. Vazifamizning murakkab tomoni ham shunda. To'g'ri, tajribalilar ko'p sanoqli raqamlarni aytib, hayrat va havasingizni keltirishadi. Lekin ular bu raqamlarni zabt etgunicha qancha ter to'kishgani o'zlariga ma'lum. Eng muhimi, bu kabi mashg'ulotlar mahoratni sayqallaydi, professionallikka yo'l boshlaydi. Ahamiyatlisi shu.





# IMKON YO'Q!




Xulosa qilib aytganda, 600 metrdan 1 500 metrgacha bo'lgan balandlikda amalga oshirilgan mazkur parashut bilan sakrash mashg'ulotlaridan ko'zlangan maqsadga to'laqonli erishildi, deyish mumkin. Mashqlar davomida desantchilar nazariy bilimlarini amalda qo'llash, tajribalarini yana bir karra oshirish imkoniyatiga ega bo'di. Mashg'ulotlar yakunlanganidan so'ng mutaxassis yo'riqchilar mazkur amaliy mashg'ulot bo'yicha o'z xulosalarini bildirdi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,  
«Vatanparvar»



## ASKARLAR HAM BELLASHAR BUNDA

Bundan bir necha yillar avval Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazi o’z faoliyatini yangi, har tomonloma zamonaviy bazada boshlashi milliy armiya tizimida harbiy kinologiya sohasini yanada rivojlantirish uchun tashlangan navbatdagi qadam bo’lgandi. Soha mutaxassislarining xizmat itlari zotini ko’paytirish, ularning belgilangan vazifalarni bajarishga o’rgatish borasidagi timimsiz izlanishlari va mehnatlari evaziga qator yutuqlarga erishilgani diqqatga sazovor.



O’tgan davr mobaynida markaz kuch tuzilmalari va muhandis-savyor bo’linmalari bilan hamkorlikda ish olib borib, xalqaro va respublika miqyosidagi musobaqlarda munosib qatnashib kelyapti. Muddatli harbiy xizmatchilar o’tasida “Eng ilg’or kinolog” musobaqasining birinchi marta tashkillashtirilishini ham markaz faoliyatining yutug’i sifatida baholasa bo’ladi. Chunki endigina muddatli harbiy xizmatning sakkiz oyini o’tagan askarlarning qisqa vaqt oralig’ida kinologiya sohasining sir-asrorlarini o’zlashtirishi, “Boyar”, “Aik”, “Bek”, “Bert”, “Pandora” kabi tajribali xizmat itlari bilan musobaqa shartlarini mohirona bajarishini katta hayotga qadam tashlayotgan yigitlar uchun haqiqiy ma’noda muvaffaqiyat deyish mumkin.

Vatan oldidagi yigitlik burchini ado etayotgan yoshlar birinchi marta o’tkazilgan “Eng ilg’or kinolog” musobaqasining shartlarini yakka va jamoaviy yo’nalishda bajarishdi. Unga ko’ra, ishtirokchilar xizmat itlarini har xil buyruqlarga bo’ysundirish, 300 metrga to’siqlar osha yugurish va 2 400 metr masofali “Dog biatloni” bo’yicha g’oliblik uchun kurash olib bordi. Birinchi shartni bajarishda Jamshidbek Aminboyevga (“Pandora” laqabli nemis ovcharkasi bilan) teng keladigan topilmadi. 300 metrga to’siqlar osha yugurishda esa Shohrux Yarashev “Bert” laqabli malinua ovcharkasi bilan qayd etgan 1 daqiqa-yu 14 soniyalik natija eng yuqori bo’ldi. O’nta nishonni mo’ljalga olish va “Dog biatloni” bellashuvida Ilyos Raimberganov” (“Boyar” laqabli



*malinua ovcharkasi bilan)* mernanlik hamda chaqqonlik borasida barcha raqiblarini ortda qoldirdi: 13 daqiqa-yu 36 soniya. Musobaqada jami 15 nafar muddatli harbiy xizmatchi ishtirot etib, ular beshtadan uchta jamoaning sharafini himoya qildi. Uchta shartda ko’rsatilgan natijalarga ko’ra, jamoalarining egallagan o’rniali quyidagicha ko’rinish oldi: 1-o’rinda 1-jamo, 2-o’rinda 3-jamo, 3-o’rinda 2-jamo.

Tadbir yakunida muddatli harbiy xizmatchilar o’tasida ilk bor o’tkazilgan “Eng ilg’or kinolog” musobaqasining g’olib va sovrindorlariga kubok, esdalik sovg’alar hamda diplomlar topshirildi. Shuningdek, ular orasidan kelgusida kontrakt bo’yicha harbiy xizmatni davom ettirishga da’vogar nomzodlar tanlab olindi. Qisqa qilib aytganda, muddatli harbiy xizmat davomida kinolog mutaxassisligini egallagan bu yigitlar katta hayotdagisi yo’lga shunday ishonchli qadam tashladi.

Asror RO’ZIBOYEV

# MEN VATAN POSBONI!

“Qadim o’zbek botirlari uzoq safarga ketganda bir hovuch yurt tuprog’ini doim o’z yonlarida olib yurganlar. Chunki bu tuproq ularga o’z tug’ilgan yerlarini eslatib turgan, xalq oldida ichgan qasamini yodga solgan. Vatanga bo’lgan muhabbatini bir nafas ham unuttirmagan. Bu bir hovuch tuproq unga o’z ota-onasini, qarindoshlarini, xalqini eslatgan, uzoq o’lkalarda bo’lsa ham, uni o’z Vatanida his qildirgan va qayerda bo’lmasin, o’z xalqi sha’niga isnod keltirmaslikka, o’z xalqining nomusli va sodiq o’g’li bo’lishga chaqirgan”.

Nukus shahrida joylashgan Havo hujumidan mudofaa qo’shinlari va Harbiy havo kuchlari qo’mondonligiga qarashli harbiy qismida muddatli harbiy xizmatni o’tayotgan askarlar bilan bo’lib o’tgan suhbat davomida Hamid Olimjonning yuqorida fikrlari xayolimdan o’tdi.

Ha, insonga tug’ilib o’sgan go’shasi aziz. Shuning uchun ham u kindik qoni to’kilgan diyorni jon qadar asraydi, avaylaydi. Ayni vaqtida ona yurt oddidagi muqaddas burchini sharaf bilan oqlayotgan bu o’glonlar ham qalbiga shunday ezgulikni jo qilgan Vatan posbonlaridir!

Ularning subbatini tinglash maroqli. Bir-biridan aqlli va bama’ni fikrlarni tinglab, armiyamiz salohiyatlari yoshlar bilan muštahkam ekaniga ishonch hosil qilasiz. Yurtimizning turli viloyatlaridan harbiy xizmatga kelgan azamatlarning orzulari, maqsadlari bo’lakcha. Biri bolalikdan askar bo’laman, deb ulg’aygan bo’lsa, birisi harbiy xizmatdan so’ng olyi ta’lim muassasasiga o’qishga topshirishni maqsad qilgan. Asosiysi, yigitlarning maqsadi bir + Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish.

Hikmatullo Samadov



— Vatan so’zini tug’ilib o’sgan joy, kindik qonimiz to’kilgan makon deya, ta’riflaymiz. Yurt sarhadlarida muddatli xizmatni o’tayotgan askar uchun bu so’z yanada kengroq ma’noni anglatadi, — deydi **oddiy askar Hikmatullo Samadov**. — Senga ishonib, post topshiriladi, qo’lingda quro bilan yurt tinchligi va osoyishtaligini tunni tongga ulab, qo’riqlaysan. Ana o’shanda Vatan neligin anglaysan.

Maktabni tamomlab, o’qishga kirolmadim, uch yil ustachilik qilganman. Otamning daldasi, maslahatlari bilan armiya kelib, hayotimni qaytadan kashf etyapman. Ishonasizmi, bu yerga kelib, dunyoqarashim o’zgardi. Kitob o’qiyapman. Do’stlar orttirdim. Maqsad, harakat, intizom va albatta sabr bilan ko’p yutuqlarga erishish mumkinligini anglab yetyapman. Umuman olganda, armiya hayotiga moslashish men uchun qiyinchilik tug’dirgani yo’q. Bu yerdagi shart-sharoit ko’ngildagidek. Xizmatdosh do’stlarim bilan xuddi bir oila a’zosidek qadrondomiz. Vatan xizmatiga bel bog’lagan yigit borki, bu sharafli burchni chin dildan ado etib, sohanı mukammal egallashga harakat qiladi. Safdosh do’stlarim bilan birgalikda doim oldinda bo’lishga harakat qilyapmiz.

Sunnatillo Norov



— Bolaligimda Vatanni qanday sevish mumkinligi haqida ko’p o’ylardim, — deydi **oddiy askar Sunnatillo Norov**. — Bir kuni shunday voqeа bo’lgan. Buxoro arkida xorijlik sayyoхlarimiz olot somsasidan qidirib yurishgan ekan. Tarjimonning aytishicha, ular yashaydigan joyda o’zbek milliy taomlari oshxonasi bo’lib, aynan shu somsani sevib iste’mol qilisharkan. Xursand bo’lib ketganman. O’z yurting, tug’ilib o’sgan

akadem ta’til olib, harbiy xizmatga kelgan o’g’lonlardan. U harbiy xizmatchilar o’rtasida o’tkazilgan “Ajdodlar izidan” intellektual o’yinida faol ishtirok etib, jamoani final bosqichigacha olib chiqqan bilimli yoshlardan biri. Suhbatdoshimiz kelajakda tibbiyot sohasi rivojlantishiga munosib hissa qo’shish niyatida ekanini to’lqinlanib so’zlarkan, shunday deydi:

— Har bir yigit bolaligidan askar bo’lishni orzu qiladi. Orzum ushaldi. Harbiy xizmatdan so’ng o’qishimni davom ettirib, tibbiyot sohasida o’z o’rnimga ega bo’lmoqchiman. Ibn Sinoning munosib izdoshi bo’lish men uchun sharaf. Vatanni sevishni barcha sohada rivojlantirish, yurt ravnaqi yo’lida munosib xizmat qilish, deb tushunaman. Tengdoshlarimni ham bilimli bo’lishga chorlayman. Zero ilm hayotning yorqin chirog’idir.

Akobir G’ulomov



Askarlar orasida turfa xarakter egalari bor. Biri kamtar, biri og’ir-bosiq, yana bira gapga chechan. **Oddiy askar Akobir G’ulomov** safdoshlari orasida kamtarligi bilan ajralib turadi. Aytishicha, olti aka-uka ichida Akobirning dadasi eng kichigi. Har bir amakisining oilasida armiya saflarida xizmat qilayotgan harbiylar bor.

— Yurt tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish qadimdan yigitlarga meros an’anadir. Shuning uchun har bir yigit bu sharaflı ishni muqaddas burchi, vazifasi, deb biladi. Qachonki yurt tinch bo’lsa, xonardonlarda xotirjamlik hukm suradi, el farovonlashadi, Vatan ravnaq topadi. Shu bois zimmadagi yigitlik burchimni astoydil ado etishga intilyapman.

Men O’zbekistondek jannatmakon zaminda ulg’aydim, unib-o’sdim. Shu bois u men uchun har doim qadrlı bo’lib kelgan va shunday bo’lib qoladi. Bu diyorda kamolga yetayotgan o’g’il-qizlar hech kimdan kam emas. Zero mamlakatimizda yoshlarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Hukumatimiz tomonidan yoshlarga ko’rsatilayotgan e’tibor va g’amxo’rlik tufayli bugun yoshlar tadbirkorlik jabhasida deysizmi, ilmfanda deysizmi, sportdamni, san’atdamni o’z iqtidorlarini dadil, erkin va mahorat bilan namoyon etish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega bo’lmoqda. Televizor orqali jahon miqyosida ulkan yutuqlarga erishayotgan o’zbekistonlik yoshlarni ko’rganda, qalbim g’ururdan entikadi. O’zbekiston dovrug’ini dunyoga taratayotgan tengdoshlarimga chin dildan havasim keladi. Shunday damlarda mening ham shu yurtim, shu aziz Vatanim uchun nafim tegayotganidan cheksiz shod bo’lamon...

Maqsadim – kelajakda xizmatni kontrakt asosida davom ettirmoqchiman. Ilgari menda qat’iyat yetishmasdi, armiya meni yigit sifatida tobladi, desam, hech ham mubolag’a bo’lmaydi. Har qanday vaziyatda maqsaddan voz kechmaslikni o’rgandim.

**Shohista ABDURAHMONOVA, Shimoli-g’arbiy harbiy okrug matbuot xizmati bosh mutaxassisini**

Daler Salimov



Xalqimizda shunday ibora bor: “Vatan oiladan boshlanadi”, — deydi yana bir suhbatdoshimiz **oddiy askar Daler Salimov**. — Ota-onam, ukam va singlim — bu mening oilam. Harbiy xizmatga kelib, yaqin insonlarimning qadri yanada bilindi. Onamning issiq bag’rini sog’indim. Dadamning o’gitlarini tinglagim keladi. Sog’inch o’rtagan mahal ularga xat yozaman. Yaqinda ukamdan xat oldim. Telefonda so’zlashish boshqa ekan, xatni o’qish boshqa. Xatni o’qidim-u, go’yo ukam bilan diydorlashgandek bo’ldim...

Qiziqishlarigiz haqida gapirib bersangiz, deysizmi? Elektronikaga qiziqaman. Yaponiyada o’qishni va yurtimizga kelib, texnikani rivojlantirishni maqsad qilyapman. Har bir maqsadga bosqichma-bosqich erishilgani kabi hozir men yigitlik burchimni namunalni bajarib, oilam bag’riga yorug’ yuz bilan qaytishni maqsad qilganman.

Isrom Ikromov



Buxoro davlat tibbiyot institutining tibbiy profilaktika yo’nalishi **3-bosqich talabasi Isrom Ikromov** ayni paytda

Korrupsiya – mansab mavqeyidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo davlat amaldorlarigina emas, masalan, firma ish yurituvchisi ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchisi bo'lishi, pora pul bilan emas, balki boshqa shaklda berilishi mumkin.



Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha, "korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsий boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat".

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning ustuvorligini e'tirof etgan holda 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi"ga va 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakat rejasi"ga qo'shilgan. Mamlakatimizda yuqorida xalqaro huquqiy hujjalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish asnosida 2017-yil 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonundan ko'zlangan maqsad korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, unda "korrupsiya", "korrupsiyon huquqbazarlik" va "manfaatlarni mojarosi" kabi tushunchalarga izoh berilgan.

Shu bilan birga, Prezidentimizning 2019-yil 27-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ushbu illatga qarshi kurashish borasida ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

### KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH TARIXIDAN

Professional davlat amaldorlari hali mavjud bo'lmagan antik jamiyatlar tarixining ilk bosqichlarida (*qadimgi yunon shahar-davlatlari*) korrupsiya deyarli bo'lmagan. Bu hodisa antik davr tanazzulga yuz tutgan bosqichdagina vujudga kelgan. Bu davrda korrupsiya domiga ilingan davlat amaldorlari haqida: "U boy viloyatga kambag'al bo'lib kelib, kambag'al viloyatdan boy bo'lib ketdi", deyishgan. Ayni shu davrda

Rim huquqida "corrumptire" degan maxsus atama paydo bo'lgan, u "buzish", "pora evaziga og'dirish" iboralarining sinonimi hisoblangan va mansab mavqeyini suiiste'mol qilishning har qanday ko'rinishlarini ifodalashga xizmat qilgan. Markaziy hukumat hokimiyati zaif bo'lgan joylarda (*masalan, ilk o'rta asr davrida Yevropada*) xizmat mavqeyidan foydalanib, aholiday o'z cho'ntagiga haq undirish uchun foydalanish aksariyat hollarda umume'tirof etilgan me'yorga aylangan.

Davlat markazlashgani sari u fuqarolarning mustaqilligini qattiqroq cheklagan va shu tariqa quyi va oliy bo'g'in amaldorlariga qattiq nazoratdan qutulishni istagan fuqarolar foydasiga qonunni xufiyona buzishga turtki bergan. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlarni boshqalarga dars bo'lishi uchun olomon ko'z o'ngida jazolashlar odatda hech qanday samara bermagan, chunki amaldan chetlatilganlar (*lavozimidan olinganlar yoki qatl etilganlar*) o'rnini yangi poraxo'rlar egallagan. Markaziy hokimiyat amaldorlar faoliyati ustidan yalpi nazorat o'rnatish uchun, odatda, zarur kuch va vositalarga ega bo'lmagan bois u korruptsianing o'ta xavfli ko'rinishlarinigina jazolash bilan kifoyalangan.

### JAVOBGARLIKNI TARTIBGA SOLISH NORMALARI

Ijtimoiy munosabatlarni korrupsiya jinoyatlaridan muhofaza qilishda korrupsiyaga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy vositalari tizimi – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi umumiyoq qismi normalarini tartibga solingen majmui muhim o'rinni.

tutadi. Mazkur tizimda birlashtirilgan normalarni shartli ravishda besh guruhga ajratish mumkin:

- 1) jinoyatchilik va korrupsiya jinoyatlarini jazolashning umumiyoq shartlarini tartibga soluvchi normalar majmui;
- 2) korrupsiya jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalar;
- 3) Jinoyat kodeksi maxsus qismining mansab vakolatlarini suiiste'mol qilib, o'zganining mol-mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik o'rnativchi normalari;
- 4) mansabdor shaxsning jinoiy qilmishlari uchun jinoiy javobgarlik belgilovchi normalar;

5) Jinoyat kodeksi maxsus qismining mansabdor shaxsning jinoyat sodir etishini tasniflovchi belgi hisoblangan mansabga oid bo'lmagan jinoyatlarning alohida turlari uchun javobgarlik o'rnativchi normalari.

Qator mamlakatlar jinoyatga oid qonun hujjalardan korrupsiya tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lmasa-da, Jinoyat kodeksida, aniqrog'i uning normalarida jinoiy jazoga loyiq korruptsianing (*hatto xalqaro andazalardan kelib chiqqanda ham*) ancha to'liq, umumlashtirilgan ta'rifi ifodalangan.

Jinoyat huquqida korruptsiyaga qarshi kurash jarayonida umumiyoq asoslarini tartibga solish nuqtayi nazaridan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi umumiyoq qismining quyidagi normalari, ayniqsa muhim ahamiyatga ega: jinoyat tushunchasining ta'rifi (14-modda), jinoyatlarini tasniflash (15-modda), takroran jinoyat sodir etish (32-modda), jinoyatlar majmui (33-modda), javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslar (IV bob), jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish (25-modda), jismoniy shaxslarning javobgarligi (17-modda), ayb (V bob), jinoyatda ishtirokchilik (VII bob), jazo va uni tayinlash, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish (to'tinchi bo'lim) masalalarini tartibga soluvchi normalar.

Korrupsiya jinoyatlari faol harakat yoki ba'zida o'ziga yuklatilgan vazifalarni qasddan bajarmaslik – harakatsizlik bilan ham sodir etiladi. Boshqaruv tartibiga qarshi korrupsiya jinoyatlari obyektiv tomonining navbatdagi zaruriy belgisi ayblanuvchining xizmat vazifasidan kelib chiqib sodir etilishidir. Muxtasar qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurash bir necha emas, balki barcha davlat organlari, keng jamoatchilik va fuqarolarning zimmasidagi vazifadir.

Sh. DO'SALIYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy sudining sudyasi.  
A. KALENDEROV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy sudining sudyasi katta  
yordamchisi

sifatida faqat moddiy xususiyatdagi manfaatlarni ta'kidlanadi (*masalan: pul, buyum, moddiy qiymatliklar va h.k.*), lekin qonunda moddiy qiymatliklardan tashqari qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga jiddiy zarar haqida ham so'z boradi. Fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariha jiddiy ziyon yetkazilganda, jinoyat predmeti nafaqat moddiy yoki nomoddiy boyliklar, balki turli mazmundagi holatlari ham bo'lishi mumkin.

Amaldagi Jinoyat kodeksida ayrim korrupsiya jinoyatlarining predmeti to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan. Masalan, Jinoyat kodeksi 210-moddasi (*pora olish*)da moddiy qiymatliklarni olish deyilsa, 211-moddasida moddiy qimmatliklarni berish deb, jinoyat predmeti moddiy qimmatliklar ekanligi ta'kidlanadi.

Jinoyat tarkibi elementlaridan biri jinoyatning obyektiv tomonidir. Nazariya va sud amaliyotida bu masalaga alohida e'tibor berilishining asosiy sababi jinoyat tarkibi obyektiv tomonini to'g'ri aniqlash, qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, o'xshash jinoyatlarni bir-biridan, jinoiy qilmishni ma'muriy yoki intizomiy huquqbazarlikdan farqlash imkonini beradi. O'rganilayotgan jinoyatlar moddiy tarkibili bo'lib, jinoyat obyektiv tomonining quyidagi zaruriy belgilar mavjud bo'lishi talab etiladi: a) ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik; b) jinoiy oqibat; v) ular o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligi.

Korrupsiya jinoyatlari faol harakat yoki ba'zida o'ziga yuklatilgan vazifalarni qasddan bajarmaslik – harakatsizlik bilan ham sodir etiladi. Boshqaruv tartibiga qarshi korrupsiya jinoyatlari obyektiv tomonining navbatdagi zaruriy belgisi ayblanuvchining xizmat vazifasidan kelib chiqib sodir etilishidir. Muxtasar qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurash bir necha emas, balki barcha davlat organlari, keng jamoatchilik va fuqarolarning zimmasidagi vazifadir.



Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek xalqining dovrug'iни dunyoga taratgan ulug' ajdodlarimizdan biridir. U asos solgan Boburiylar sultanati Hindistonda 332 yil hukmronlik qildi. Ushbu buyuk sarkarda jahon tarixida iste'dodli shoh va shoir, benazir adabiy merosi, bonyodkor ishlar sohibi, kuchli davlat arbobi sifatida yuksak o'rinn egallaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi, harbiy mahorati va qahramonliklari necha asrlardan buyon o'rganib kelinmoqda. Bu borada uning xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini, tinchlik va osoyishtalikni saqlash borasidagi islohotlari alohida tadqiq etiladigan soha hisoblanadi. Zero sohibqiron Amir Temurdan keyin Temuriylar sultanatining munosib vorisi sifatida davlat va jamoat xavfsizligini saqlashga, chegaralarni muntazam himoya qilishga, bu yo'sinda qator jang-u jadallar olib borgan shoh aynan Bobur mirzo bo'ladi.

Bobur zamonida jamoat xavfsizligini ta'minlash unchalik oson bo'laman. Buni xalqning qisqa davr ichida u yoki bu rahbar boshqaruviga og'ib ketishi, siyosiy tarqoqliklar kuchayib borayotgan

bir davr bo'lganligi bilan izohlash mumkin. Boburning faoliyatida ham bu kabi holatlар tez-tez sodir bo'lganligi, Andijonda bo'lganda Samarqand, Samarqandda bo'lganda Andijon qo'lidan ketganligi bunga misoldir. Qiziq jihat, kelishmovchiliklар asosan qarindoshlar, ayniqsa yaqin qarindoshlar orasida bo'lib, muhitning unchalik ijobji bo'lmaganligi ham haqiqatga yaqin. Shu boisdan ham hukmdorlar, xususan Boburning o'zi ham ayrim hollarda ehtiyojkorlikka alohida e'tibor qaratgan. Xavfsizlikni ta'minlash bobida harbiy sohada

nafaqat O'zbekiston tarixida, balki jahon harbiy tarixida ham muhim ahamiyat kasb etib, kursantlarni, mazkur davr tarixi bilan qiziquvchilarni ajdodlarimiz foydalangan harbiy qurollari va ularning imkoniyatlarini tasavvur etishi hamda masala yuzasidan xolis fikrlash imkoniyatini beradi. Ajdodlarimizning ilg'or qurollarni yaratishga bo'lgan intilishlari, bu boradagi xorijiy davlatlari bilan hamkorliklarga urinishi e'tiborga molik bo'lib, doim harb ilmini takomillashtirib, yangiliklarni yaratib borish lozimligini hamda bu borada

nomi bilan uchraydi. Kamongaron yoy yasovchilar ma'nosida bo'lib, "eski zamonalarda ushbu qishloqda yoy yasaguvchilar o'rnashganlari sababli shu nom bilan atalgan.

XVI asrlarda o'q-yoydan otligan tez uchadigan maxsus o'q – "shiba" deyilgan. Tarixiy manba va adabiyotlarda kamonning o'lchovi va o'qining uzunligi muvofiq kelishi haqida fikr bildiriladi. Kamon va o'qlarni olib yurish uchun ustalar "sadoq" yasaganlar.

Neft va boshqa qurollar O'rta Osiyo xalqlari tomonidan qadimdan urushda qo'llanilib kelingan. "Boburnoma"da 1519–1520-yil Qobul voqealari haqida yozilganda: "Bajavr eli, chun to'fang unidin hech parvo qilmadilar, balki to'fang unini (tovushini) eshitgach, tamasxur qilib, muqobalada sha'ni, harakatlar qilurlar edi. O'shal kuni Ustod Aliquli besh kishini to'fang bila yiqdi. O'zga to'fangdozlar ham to'fang otmoqda bisyor jalolad ko'rsatib yaxshi otdilar". Bu davrda "to'fang" deb atalgan miltiq, o'q otar qurol bo'lib, dorisi "porox" bo'lgan. Mazkur davrga oid miniatyura rasmlarida uzun va hozirgiga nisbatan qo'polroq bo'lgan qurol edi. To'fang otuvchilar – "to'fangdozlar", deb yuritilgan.

Ammo "Boburnoma"da bu qurol ilk bor 1518-yil voqealari bilan bog'lab tilga olinadi. 1508–1518-yillardagi voqealar "Boburnoma"dan joy olmagan. Shunday ekan, to'fangning Bobur qo'shinida ilgariroq bo'lganligini ta'kidlovchi Muhammad Solih va Muhammadyor ibn Arab Qatog'on so'zlariga ishonса bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur tarixda buyuk sarkarda, mahobatli qo'shin qo'mondoni edi. Uning qo'shinida o'rta asrlarga xos qurppardan ham foydalilanigan. Ammo Bobur zamonasining ilg'or qurollarini ham quroloz ustralarga yasatishga harakat qilgan. U ko'plab Yevropa davlatlari bilan doimiy muhorabalarda bo'lgan Usmoniyalar davlatidan ustalar chaqirtilib, o'z davrining ilg'or qurollarini quydirishga uringan. O'zi esa ushbu "top" qurollarini sinash ishlarida ham bosh-qosh bo'lgan. Bobur qo'shining qurol-yarog'i masalasida ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishda, uni o'z askarlariga joriy etishda ochiq siyosat olib borgan. Bu esa Hindiston fathida juda qo'l kelib, buyuk imperiya barpo etishga olib kelgan. Tarixiy manbalar Bobur qo'shining harbiylar qurollari borasida doimo izlanishda bo'lganligini ko'rsatadi. Qo'shining jangoval shayligini oshirish maqsadida doim menganlik borasida turli musobaqalar uyushtirib turgan. Mayjud qurollarni takomillashtirish bo'yicha, nainki quroloz ustalar, balki tashabbuskor askarlarni ham ilg'or g'oyalari uchun rag'batlantirgan. Ma'qul qurollar qo'shin uchun quroloz ustalar tomonidan yasalgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur davrida amalga oshirilgan xavfsizlikni mustahkamlash borasidagi barcha chora-tadbirlar birinchi navbatda, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, aholining o'zaro totuv yashashiga imkon yaratishga qaratilgan.

# BOBUR QO'SHINIDA XAVFSIZLIK

erishgan muhim xususiyatlaridan biri shu ediki, boshqa shohlarning jangda ishlatgan taktikalarini o'zlashtirib olib, kelgusida shunga tayyor bo'lishga harakat qiladi va bu orqali o'ziga xos tajriba shakllangan edi. Manbalar Bobur davrida qamaldagi qal'ani qo'riqlashga alohida e'tibor qaratilganligini tasdiqlaydi. Bunda nafaqat harbiy qurol va aslahalar, balki boshqa moddiy va ma'naviy ta'minot ham zarurligi, bu borada Bobur ancha qiyinchiliklarni boshdan kechirganligi ko'zga tashlanadi.

"Boburnoma"da qayd etilishicha, "...burungilar debdurlarki, qo'rg'on berkitmoqlikka bosh kerak, ikki qo'l kerak, ikki oyoq kerak. Bosh sardor bo'ladi. Ikki qo'l – ikki tomonidan keladigan ko'mak va madad bo'ladi. Ikki oyoq – qo'rg'onning zaxirasi bilan suvi bo'ladi". Demak, askarlarning qamal vaqtidagi ta'minoti ularning keyingi faoliyatiga ham chuqur ta'sir ko'rsatishini anglagan Bobur bu boradagi muammolarni hal qilishga alohida e'tibor qaratgan. Xavfsizlikni ta'minlashda harbiy sohada erishgan yana bir muhim jihatlaridan, Bobur qo'shinlarining qurol-aslahalarini doimiy rivojlantirib, takomillashtirib bordi. Bu esa qo'shinlarning jangoval salohiyatiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston tarixida harbiy qurollarni o'rganish, asosiy qurolozlik markazlarini tadqiq etish, biz harbiylar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimizning qurol yaratish texnologiyalarini bilishga urinishlari, bu ularning texnika borasidagi ijodi intilishlarining, mamlakat mudofaa qobiliyatini o'stirish borasidagi izlanishlarining samarasini deb baholash mumkin. Mamlakatimizning ko'pgina olimlari bu borada o'z tadqiqotlarda turli davrlardagi qurollar yasash texnologiyalarini qayd etib o'tgan. Ammo jangoval miltiqlar, to'plar aksariyat XV–XIX asrlarga oid tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar qurol-aslahalarini o'rganish

loqaydlikka yo'l qo'yib bo'lmashlikni targ'ib etadi.

XVI–XIX asr manbalari – Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Rashiduddinning "Jome at-tavorix", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullahoma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi" asarlarida O'rta Osiyoda qo'llanilgan ko'plab qurollar nomi tilga olinadi.

O'rta Osiyoda o'rta asrlarda jangoval qurollar holati, qurolozlik taraqqiyotidagi o'zgarishlarning sust kechishi qanday omillarga bog'liqligini o'rganish maqsadidan kelib chiqib, bu yerda yasalgan ayrim jangoval qurollar turlari, ular yasalishi haqidagi ma'lumotlarni o'rganishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yidik.

Boburiylar davri qurol-yarog'lari xususida ma'lumot berar ekanmiz, ularni ikki guruhga bo'lishimiz mumkin: 1) sovuq qurollar; 2) o'tochar qurollar.

Sovuq qurollar sirasiga qilich, o'q-yoy, nayza, xanjar, oybolta, gurzi, kamon va boshqalarni kiritish mumkin. O'tochar qurollar – bular, to'fang deb atalgan miltiqlar va turli to'plar (toshli, nefli, poroxli o'qlarga ega). Bu qurollar davrlar o'tib, nomlanishining o'zgarishi, sifat darajasida turlicha bo'lganligi va o'qlari, imkoniyatlarida takomillashish yuz bergenligidan dalolat beradi.

XV asr tarixchisi Abdurrazzoq Samarcandiying yozishicha, harbiy safarda har bir zabit jang qilish usullarini yaxshi bilishi farz sanalgan bo'lib, o'zi bilan bir yilga yetadigan oziq-ovqat, qurol-aslaha, 30 ta o'q bilan kamon, temirsovut, nayza va qalqon, bolta, temir kurak olib yurishi kerak bo'lgan. O'rta Osyoning ba'zi manzillari ayrim qurol turlarini ishlab chiqarishda mashhurlikka erishgan. Samarcand qurolozlik markaziga aylanib, sovtoszlar mahallasi qurilgan. Xususan, "Boburnoma" asarida Choch – Toshkentning mashhur kamonlari eslatib o'tiladi. Ya'ni manbalarda "kamoni chochiy"

Surxondaryoda yurganimizda bir to'yga kirib qoldik. To'yning avj pallasiga borib qolibmiz.

Davradagi devday bir mast odam o'ttada qo'shiq aytayotgan bechora xonandaga nuqlu

"To'yalar muborak,  
ey yori jonim,  
To'yna bo'lsin,  
tan birla jonim"

degan qo'shiqni aytasan, aytganda ham faqat shu ikki qatorini aytasan", deb

majburlar edi. Xonanda ham nima qilsin, ne bo'lsa


bo'lsin, baloga qolmay, deb qo'shiqning shu joyini qayta-qayta aytib turardi.

Har qo'shiq aytiganda mast dev o'ng qo'lini ko'tarib, bir muqom qilib, to'yan xo'rozday qichqirib qo'yardi.

Mahalla oqsoqoli ziyoli odam ekan, hazillashib, bizga shunday deb qoldi: "O'zi bu surbet qishloqdag'i hamma to'yga boradi, hamma to'ya shu "To'yna bo'lsin, tan birla jonim" degan qo'shiqni qayta-qayta aytiradi, lekin hech bir to'yda to'y egasiga bir so'm ham to'yna qilmaydi. Bu nodonga "Sening taning bilan joningning birovga keragi yo'q, o'liging ham, tiriging ham bir balo, undan ko'ra, o'n ming so'm to'yna qil, nomard!" deydi odam yo'q".

Ba'zan Vatan va vatanparvarlik haqida davralarda balandparvoz, soxta gaplarni to'tiqushday qaytarayotgan ayrim kimsalarni ko'rganimda, birovning to'yiga borib, bir so'm to'yna qilmaydigan, lekin yeb-ichib, mast bo'lib, tan bilan jonnini to'yna qilish haqidagi qo'shiqni qayta-qayta aytirib, hammani bezor qiladigan o'sha odam esimga tushadi. **Vatan haqida gapirganda hayo va andisha zarur. Vatan bizning maqtovimizga ham, olqishlarimizga ham zor emas, unga mehrimizning o'zi yetadi.** E'tiqod bilan bog'liq katta tuyg'ular haqida gapirganda qanchalar ehtiyoj bo'lamic, birdan hushyor tortib, o'ylab gapiramiz. Vatan haqida so'z ketganda ham eng muqaddas narsa haqida gapirayotganday vijdonga suyanib so'zlash kerak. Bo'limasa, jim turgan ma'qul.

Dunyo o'zgaryapti. Qadriyatlarg'a, elga, yurtga munosabatlari ham shiddat bilan o'zgarib boryapti. **Ilgarilar odamlar "kindik qonim to'kilgan tuproq", "ota-bobolarimning xoki yotgan yer", "ko'z ochib ko'rganim", "so'ng manzilim" kabi iboralarni boshqacha aytishgan, muhim, boshqacha anglashgan.** Bugungilar uchun bu gaplar qanday qimmatga ega, buni ularning o'zları biladi. Hayotda o'zgarmasligi kerak bo'lgan azaliy tutumlar ham bor-ku, desangiz, bir zumda konservatorga chiqasiz-qo'yasiz. Lekin har qanday o'zgarishning zimnida xalq ming yillar mobaynida shakllantirgan asl mohiyat yotishi kerak.



# MEGAPOLISDAN HIMOLAY CHO'QQOSIGACHA YOXUD AOL VA NODONLIK QILKO'PRICIDA

Yaqinda "BBC"ning bir filmini ko'rdim. Bu film sivilizatsiyadan yiroq Himalay tog'i cho'qqilarida yuradigan ko'chmanchilar hayoti haqida. Kimsasiz tog'larda, televizor, internet, telefon yo'q joylarda yashaydigan Karma degan odam "Dunyo keskin o'zgaryapti. Shuning uchun men bolalarimning taqdiridan qattiq tashvishdaman" deb xavotirini bildirdi. Kimsasiz Himalay cho'qqilarida yurgan odam shunday desa, ulkan shahardagi odam nima desin?

Bugungi dunyo haqida o'ylaganingda ajab bir holga tushasan. Ajabligi shundaki, bunday aqlii dunyonи tarix ko'rмаган, shuning barobarida, bunday nodon dunyonи ham hali tarix ko'rмаган. Bu dunyoda yerdan bir necha ming yorug'lik yili uzoqligida joyleshgan yulduzning og'irligini kimlardir bir xonada o'tirib aniqlab beryapti. Yana shu dunyoda, Kaliforniyada shifokorlar endi otanonaning roziligidisiz bolanining jinsini o'zgartirish operatsiyasini o'tkazishi mumkin, deyapti AQSh kongressi a'zosi. Bu donolik va ahmoqlikning gibridi emasmi? Bashariyat tarixida hali donolik va ahmoqlikning nikohi qayd etilmagan edi-ku. Insoniyat daholarining hammasi nodonlikni, ahmoqlikni qattiq qoralagan. Iso payg'amarbar "O'likni tiriltirishga kuchim yetdi, ammo ahmoqni tuzatishga kuchim yetmad" degan. Mirzo Bedil "Nodon bilan bir soat suhabatda bo'lgandan ko'ra, yuz yil zindonda o'tirgan yaxshi" deydi. Gyote "Faol nodonlikdan ko'ra, qo'rquinchi roq narsa yo'q. Juda ustalik bilan tasvirlansa-da, bema'nilik avval taajjub, keyin nafrat uyg'otadi"

degan. Bu gaplar ming yillar oldin aytilgan bo'lsa-da, aslida bugungi zamonning gapi.

Odamlarni ahmoq qilish oson. Ba'zan bittagina teleo'yin bilan ham ko'pchilikni xohlagancha ahmoq qilib, ming maqomga yo'rg'alatib tashlasa bo'ladi. Odamlarni aqlii, farosatli qilish qiyin. Jamiyatning butun muammosi shunda. Dunyoda olomonchilik kayfiyati kundan kun avj olib boryapti. Bu kayfiyat barcha xalqlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'yamadi. Yaqinda yurtimzida qilingan katta bir ixtironi internetga joylashibdi va uning yoniga bozorda ikki xotin bir-birining sochini yilib, yuzini tirnab urishayotgan janjalini qo'yishibdi. Natija qanday bo'larkan, deb shunday tajriba qilib ko'rishgan-da. Qarangki, bir hafta ichida olimlar ixtirosi haqidagi lavhani 5 ming kishi, xotinlarning mushtashuvini esa 2,5 million kishi tomosha qilgan. Buni qanday tushunasiz, zamondosh? Qanday izohlaysiz? Bizga qay biri muhim, vatandosh? Odam bu savollarni berishga uyalasan.

Biz qator-qator xalqlar madaniyatining ko'z oldimizda mislisiz yemirilishlariga guvoh bo'lyapmiz. Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda, "qasrlar kapalak qanotiday uchib ketyapti". Katta avlodlar bilan kichik avlodlar o'rtasida xitoy devori paydo bo'lmoqda. Ota va o'g'il, ona va qiz bir-birlarini umuman tushunmay qolyapti. Hatto o'zaro yovlashish hollari ham bor. Andisha, ibo, xijolat, uyat kabi tutumlar qanday toptalishini ko'ryapmiz. Hozir odamlarga ikki



kishining mehr va samimiyat bilan bir-birini alqab turgani emas, aksincha bir-birini so'kib, yoqa yirtishayotgani, hatto bir-birini ayovsiz do'pposlayotgani qiziq. Shuni tomosha qilsa, shuni tarqatsa, shundan zavqlansa... Shular endi bayroq dor bo'ladi, shularga maydon berib qo'yiladimi? Ijtimoiy tarmoqlarda illatlarni fosh qilayotgan, kirdikorlarni ochib tashlayotgan, haqiqatga, Vatanga xizmat qilayotgan qalamdorlar bor. Lekin yolg'on-yashiq, oldi-qochdi, fitnalar bilan shug'ullanib yurganlar, o'zları illatga aylanganlar ulardan ko'ra bir necha o'n barobar ko'proq.

Faroatsizlik, fahmsizlik, didsizlik, bema'nilik juda xunuk narsalar. Bunday illatlar yonidan o'tayotganda "Menga nima? O'zining sho'riga sho'rvasi to'kilib yuraveradi-dal!" deb beparvo o'tish ham mumkin. Lekin bu narsalar yuqumli, yuqumliligini to'ylarda to'da-to'da bo'lib olib, sharmandalarcha o'yinga tushayotgan odamlar holidan ham bilsa bo'ladi. "Qovun qovundan rang oladi" degan maqol bor. Bu illatlar ommaviyashib boraversa, oxiri millat ruhiyatini buzmaydimi? Shoir Imant Ziyedonisning bir she'rida shunday alamli satrlar bor:

Xotin erga, er xotinga mos,  
Ikkisi baravar  
burun qoqarlar.  
Hademay ulardan,  
Xudo xohlasa,  
Tug'ilib qoladi  
cho'chqaboqarlar.

Internetda bir xabarga ko'zim tushib qoldi. Qabristonda go'rlarning raqamini belgilab beradigan odamning aytishicha, undan bir kishi otasi o'lganda "707 raqamini sotib olish imkonim bormi?" deb so'rabi. Nima, 707 raqami jannat eshigining kodi bo'lib qoldimi? Soxta obro', ko'pik havaslar, o'z-o'zini ko'z-ko'z qilishlar... bulardan qanday naf bor? Qirq kunda qiyig'i

chiqib qoladi-ku. Bu xabardan sal oldinroq ijtimoiy tarmoqlarda qariyalar uyidagi otaxonning intervyusi tarqaldi. Unda shunday bir gap bor: "**Otasini, onasini bu yerga tashlab ketganlar bor, tirik insonlar, o'shalar biror marta ham xabar olishmaydi. O'lib qolsa, ko'mib yuboraveringlar, deb telefonidan aytib qo'yishadi...**" Ikki holda ham ma'naviy tubanlikni ko'ramiz.

Bularning hammasi insonlardagi ichki ma'rifat inqirozining natijasidir. Jahonda ahli fikrning tashvish va xavotiri shundan. Eng katta urushlar ong olamida sodir bo'lmoxda. Agar bugungi dunyo o'z ma'naviyatini va ma'rifatini himoya qilib qololsa, hamma narsasini himoya qilib qola oladi. Aksincha bo'lsa, hamma narsasini boy beradi. Bu oddiy aksiomaday gap. **Holbuki, 2022-yilda global yillik harbiy xarajat 3,7 foizga oshib, 2,24 trillion dollarga yetdi. Bu – rekord ko'rsatkich. Agar dunyo harbiy emas, ma'rifiy sohaga shuncha pulni sarflasa nima bo'lardi?** Olam guliston bo'lib ketmasmidt? **Urushlar, nizolar haqida gap-so'zga o'r'in ham qolmasmidt...**

Ma'lumotlarga ko'ra, tabiatdagi eng katta yo'qotishlar keyingi 50 yilda ro'y bergan. Jumladan, **barcha yirik baliqlarning 90 foizi, dunyo o'rmonlarining 70 foiz, qush turlarining 25 foiz va 40 mingdan ortiq ko'l boy berilgan.** Dunyo tabiatidagi bunday global yo'qotishlar ko'p jihatdan odamzodning ma'naviyatidagi yo'qotishlar bilan chambarchas bog'liqidir.

Bu gaplarning maqola boshida belgilangan mavzu – Vatan va vatanparvarlikka nima aloqasi bor deyishingiz mumkin. Gap shundaki, dunyo "katta qishloq"qa aylanib bo'ldi. Deylik, Amerikaning qaysidir manzilida maxfiy holatda boshlangan bir ishning ta'siri Himolay cho'qqilarida kezib yurgan o'sha ko'chmanchi Karmagacha yoki Bobotog'da

yurgan cho'pongacha besh sekundda yetib boradi. Bir paytlar kapitalizm va sotsializmga bo'lingan dunyo bugun aql va nodonlik orasidagi qilko'prik ustida chayqalib turibdi. Kim qaysi tomoniga qadam tashlaydi, bu uning o'ziga bog'liq. Qaysi yurt ma'rifikatning, qaysi jaholatning etagini tutadi bu ham ularning ixtiyorida. Shu bois yuqorida tashvishli jihatlar haqida ko'p gapirgan bo'lsak, o'quvchilarimiz buni to'g'ri tushunsinlar. Zero mening zaif joyin mening o'zimdir. Men o'sha joyda yashiringan bo'laman. Odamning zaif joyida uning dardi yashiringan bo'ladi. Buyuk yapon adibi Akutagava aytganiday, Axillesning nozik joyi uning tovonidir. Shuning uchun Axillesni faqat tovonidan o'ldirish mumkin bo'lgan. Axillesning tovonini bilmasdan Axillesning kim ekanini bilib bo'lmaydi. Bitta odamga taalluqli gap ba'zan butun xalqqa taalluqli bo'ladi. Demak, eng zaif nuqtamizni bilmasak, o'zimizni bilmaymiz, himoyani qayerdan boshlashimizni ham bilmaymiz. Yutuqlar haqida ko'p gapiramiz, shuning havosida ko'pincha zaif tomonimizni unutib qo'yamiz. Dunyoni qaqshatayotgan ma'naviy tanazzullar o'z xurujini xuddi o'sha zaif nuqtadan boshlashi tayin.

Forobiy "Fozil odamlar shahri" risolasini ma'rifikatli jamiyat orzusida bitgan. Bugungi tahdidlarga to'la, murakkab davrda ma'rifikatli jamiyat qurish oson bo'lmaydi.

Odam tabiatan bema'nilikka, jozibador aldamchi g'oyalarga beriluvchan bo'ladi. Dunyodagi makkor mafkuralar bundan ustalik bilan foydalaniadi. **Olamning qaysidir kavaklarida, to'r to'qiyotgan o'rgimchakday bolalarni yo'ldan ozdiruvchi, ong va rujni bulg'ovchi manfur g'oyalarni ishlab chiqib, yana saxovatpesha valine'mat timsolida ko'rinish beradigan, dunyoni buzish ishtiyoqida har qanday tubanlikdan qaytmaydigan ma'rifikat kushandalari bisyor.** Ularning g'oya va mafkuralariga har qadamda duch kelasiz. Hiylagar mafkura shunday kuchki, boshingni silab, joningni oladi, manglayingdan o'payotib, qoningni ichadi. Stalin o'lganda momom faryod ko'tarib, "Endi nima qilamiz?" deb yig'igan ekan. Holbuki, uning eng yaqinlarini, hatto erini Stalin qatag'on qilgan. Mafkuraning kuchi va o'yinlarini ko'ryapsizmi? Bu soddagina mushtipar aksakalari va erining qotili timsolida xaloskor valine'matni ko'rib, tag'in uning o'limi uchun dod solib yig'layapti. Shunday ekan, bostirib kelayotgan yot mafkuralarga, qo'ynimizga kirib olayotgan hiylagar g'oyalarga qanday qilib befarq qaraymiz?

\* \* \*

Katta shaharlar hayotini kuzata turib, o'yga tolaman. Qishloqlar uyoqda tursin, olis-olis ovloqlar ham shaharlashyapti. Bir qarashda bu juda yaxshi. Sharoit, imkoniyat o'zgaradi, hammasi zamonaviyashadi. Yaqin-yovuqni taraqqiyot o'z mevalaridan bahramand etadi. Lekin bu jarayonda elning ma'naviy qiyofasi yo'qolib borishini sezmay qolamiz. Har qanday shaharlashish mehr-u oqibatni, asl ildizlarni boy berish evaziga amalga oshmasligi kerak. Ba'zida cho'llarda, keng yaylovarda har-har joyda bitta uya duch kelasiz. Ba'zi uylarning orasidagi masofa besh-olti kilometr keladi. Menga ba'zan bitta ko'pqavatlari uya, bitta yo'lakda, bitta qavatda yonma-yon yashayotgan begona qo'shnillardan ko'ra, yaylovlardagi tarqoq qo'shnilar bir-biriga yaqinday tuyuladi. Ular bir-biridan yaxshi xabardor. Bir kuni "Afrosiyob" poyezdida ikki yosh yigit bilan Samarqanddan Toshkentgacha kichik stol atrofida yuzma-yuz o'tirib keldik. Shuncha vaqt orasida oramizda oltmish santimetrik stol yonida yonma-yon o'tirib keldig-u, gaplashmadik. Gaplashmaganimiz ham mayli, na salom bo'ldi, na xayr. Bir so'z ham yo'q. **Axir biz odamlarmiz-ku. Bir elning farzandlarimiz-ku.**

\* \* \*

O'tgan yili Argentina plyajlaridan birida o'ttizta o'lik kit topildi. Bu ham nimagadir muhim ishoraday tuyuladi. Xudo va tabiatning ishorasiday... Shu fojaviy ishoradan so'ng bu yil Himolayda to'rt yuz yilda bir marta gullaydigan tabiat guli – Maha molu gulladi. Bu daraxtning gullashi ehtimol insoniyat uchun chaqiriqdır. **Hiyoya va najotga muhtoj go'zallik va ma'rifikatning "Hali biz bormiz!" degan chaqirig'idir.**



Saida Zunnunova... O'zbek adabiyoti bo'stonida oy kabi balqib turadigan adibamiz. Uning asarlarini o'qigandirsiz. She'rlari qo'shiq bo'lgan, ohanglariga mast bo'lib tinglagandirsiz. Yozuvchi haqida bir yangi gap aytolmasligim tayin. Shunchaki sizga eslatgim keldi. Javoningizda uning asarları bormi? Qaysi qissa yoki hikoyasi ko'nglingizga yaqin? Qayta-qayta varaqlab, ko'z yogurtradigan, so'ng bag'ringizga bosib, o'nga cho'mib qoladigan kitobi bormi sizda? Uning ijodi bilan ilk bor qachon tanishgansiz?

## BOLALARINGIZGA BAG'RI BUTUNLIKNI TILANGLAR, ODAMLAR!



Keling, shu savollarga javob berib, sahifamizda o'quvchilar bilan o'toqlashing, taassurotlaringizni bo'lising, tortinmang!

Shahrisabzda tug'ilib o'sdim. Shahar va qishloqlarining o'ziga xosliklari bisyor. Shahrisabz – Kitob yo'lining yoqasida kutubxona bo'lar edi. Ko'rimsiz, ammo kattagina edi. Uni qanday topib borganim esimda yo'q. Yana ikkita kitob do'konni bo'lar edi: har bir burchagi, javonlari yodimda qolgan. Ikkisi ham Chorsuga yaqin. Bozor qoshidagisida rus tilidagi kitoblar ko'p edi. Ikkovi ham ari inidek to'zib yotardi. Hozir... Ular yo'q, afsus. Har bir davrning o'z ustunliklari, qiziqliklari bor. Agar o'sha davrda bugungidek olamni o'zida jam etgan telefonlar bo'lganida kitoblarga mehr qo'ya olarmidik yoki aql-u hushimiz telefonlarda bo'lar edimi? Shu savolni tez-tez o'zimga berib turaman. Albatta, internetga ulangan telefonlar qiziq, ammo... kitoblar baribir yaxshiroq!

Kitob do'konlarini nega esladim? Saida Zunnunova asarlarini do'kon tokchalaridan topmaganligim uchun. Ehtimol, hozir topsa bo'lar. Bizga kitob do'konlarini kezdirdigan o'sha davr gazeta va jurnallari edi. Biz adiblarimiz, shoirlarimizni gazeta va jurnallar orqali taniganmiz.

Saida Zunnunovaning qahramonlari oddiy insonlar. Adabiyot katta, hatto hadsiz maydon. Unda nomdor, dunyoni hayratga solgan asarlar ko'p. Eng ko'p o'qiladigan, eng ko'p tillarga tarjima qilingan asarlar ham bisyor. Ba'zi asarlarni esa xos o'quvchilarigina tushunadi. Har bir inson bir kitob deydi. Yozuvchining qissa va hikoyalarida shu narsani yaqqol ko'rish mumkin.

"Shu uyning bekasi" hikoyasi qahramoni Umriniso buvi. Bolalari allaqachon uchirma bo'lib, ota uyini tark etishgan. Ammo ona hamon ularning yonida, ularga tirkak.

**O'qiyimiz:** "– Qariganingizda tinch qo'yishsin-da endi. Unisi tortib, bunisi sudrasa, bu nima degan gap? Yana hammasi o'qimishli, tushungan bolalar-a! – Onaizor shu ekan-da. O'zimning ko'nglim tinchimaydi. Oling, quruq ichmang. Murabbodan oling. O'zim behidan pishirganman. Ming shukur, shular borki, tashvishlari bor.

– Bola-chaqa deymiz-ku, o'nta bola bitta ota-onani boqolmaydi. Shularga surf qilgan umringizning yarmini hukumatga ishlab qo'yaningizda, beminnatgina pensiyani olib yotar edingiz.

Umrinisoga bu gap yoqmadidi. Labini yalab, yuzini sal chetga o'girdi-da, bir narsa qidirganday nazar bilan:

– Gap puldam? Omon bo'lishsin, – dedi. Shunday dedi-yu, lekin yuragining bir cheti g'ash bo'lib qoldi. Shuncha qilgan mehnatlari nahotki ko'zga ko'rinnasa. Mana, bolalari ishlayapti. Ular yomon odam bo'lishmadi. Ularning hammasida mehri-mehnati, umri, yo'qolgan husni bor. To'g'ri, hukumat ishini qilmagan. Lekin hukumatga

yaxshi-yaxshi farzandlarni tarbiyalab berdi. Bu o'ringa o'tmasmikan-a? Yetti bolani tarbiyalash oson bo'ptimi? Agar shularning birontasi noqobil chiqqanda, hukumatga, odamlarga qancha tashvish ortardi".

Ha, shunday, biz hamma narsani tashqi tomondan ko'rib, baho beramiz. Moddiyatni birinchi o'ringa qo'yishimiz ham bor gap. "Ming shukur, shular borki, tashvishlari bor". Bunday fidokorlikni anglash mushkul. Nahotki, onalar farzandlarining tashvishlariga ham shukrona keltirib yashashsa?!

**Yana o'qiyimiz:** "Umriniso buvi yolg'iz emasdi. Anchamucha kunlarning guvohi bo'gan bu uy uning nazarida tirikdek edi. Ha, tirikdek u bilan so'zlashardi. Ustunlari ba'zida qisirlab, eshitapsanmi, men ham qariyapman, men ham holdan ketyapman. Mening bag'rimga ham inson nafasi, iliqlik kerak, deyayotganday bo'lardi. Qandoq qilsin? Ertaga Shakarxon kasalxonadan keladi..."

Siz shunga ishonasizmi? Uyning tirikligiga?! Men ishonaman. Kimsasiz uylarni kuzatganmisiz? Ularda allaqanday g'amginlik, mung bo'ladi. Odam oyog'i yetishi bilan tabassum qilib, jonlangandek bo'ladi. Buni bir necha marta kuzatganman.

Adibaning yana bir hikoyasi "Qarz" deb nomlanadi. Bu siz o'ylagandek, oddiy oldi-berdi qarzi emas, balki undan ko'ra balandroq turuvchi, noyobroq desa ham bo'ladi, hamma ham qodir bo'lmagan qarzdir.

Bugun o'z uyini tark etib, o'zga ellarni makon tutish yangilik bo'lmay qoldi. Yaqinda ijtimoiy tarmoqda avarlarning mashhur shoiri Rasul Hamzatovning nabirasi Shahri Amirxanova haqida o'qib qoldim. Bilasiz, shoir Vatanni eng baland pardalarda kuylagan. Va ayan shu bilan millionlab o'quvchilar muhabbatini qozongan. Gap shoir haqida emas, nabirasining qarashlarida. U Isroi pasportini olganidan juda baxtiyor ekanligi, mamlakat uni qabul qilganidan faxr-iftixor tuyishini, endi Isroi uning yangi oshyonini ekanligi va... uydan ayrilish o'zi o'ylaganidek u qadar murakkab narsa emasligini ijtimoiy tarmoqlarda yozdi.

Ehtimol, kun kelib, shoirning nabirasi ham otasining qahramonlari kabi yurt qadrini anglab yetar yoki yana ayrim qahramonlaridek sira afsus chekmay unutar.

Biz hammamiz ham kun kelib, ota uyini tark etamiz, undan uzoqlashamiz. Turmush tashvishlariga o'ralashib, ayniqsa ota-onamiz olamdan o'ganidan so'ng qadamlarimiz sekin-asta tiyilib qolganini sezmay qolamiz. Ammo uni butunlay unutib bo'lmaydi. Ba'zan oshkor, ba'zan pinhona uni qo'msaymiz. Chang ko'chalari, paxsa devorlari ham bir qadri bo'lib qoladi. Yoshimiz ulg'ayganida xotiralar tez-tez bezovta qila boshlaydi, bizni hech kim kutmayotgan bo'lsa ham o'sha tomonlarga intiq bo'laveramiz...

"Qarz"dan o'qiyimiz: "Qattiq betoblikdan keyin negadir uning ko'ngli qishlog'ini qo'msab qoldi. Lekin kimning oldiga boradi. U joyda hech kimi yo'q. Ota-onasi o'lib ketgan. Bolalikdag'i o'toqlardan kim qolgan qishloqda, uni ham bilmasdi. Oradan o'ttiz-qirq yil vaqt o'tgandan keyin birlari ham tanirmidi. Lekin baribir uning ko'ngli shu joylarni qo'msardi. U tez-tez qishlog'i, bolaligi haqida gapiradigan, hamma ikir-chikirlni eslaydigan bo'lib qoldi. Bir kuni onasining oshqovoq somsaga ustaligini gapirib ketdi:

– Jildi yupqa, o'zi katta-katta bo'lardi. Achchiq, ichidan mayda qizil qalampirlar ko'rinih turardi. Non yopdimi, albatta yo piyoz somsa, yo oshqovoq somsa qilardi".

Ha, onalar shunday bo'ladi. Ular tayyorlagan taomlar dunyoning eng totli taomidir. Go'shtsiz bo'lsa ham, yog'siz bo'lsa ham. Bugun hammaning ham hech bo'lmaganda bir marta dunyo xalqlari taomlaridan totinib ko'rish imkonibor. Beqiyos lazzatli yemaklar, ta'mi og'zingda qoladi. Shunday bo'lsa ham tarkibi oddiy loyiali, qatiqlangan ugra yoki keskan oshni qo'msayman-da. Yo'q-yo'q, och qolganimdan emas, uni ko'nglim tilaydi, onam pishirar edi-da...

"Ikki o't orasida" hikoyasining nomi ham odamni hushyor torttiradi. Bu hayotning ko'rinnas otashlarida yonmagan kimsa bormi?! Yonish boshqa, ikki o't orasida qolish boshqa-boshqa narsalardir.

**O'qiyimiz:** "U doim mana shunday yashadi. Ikki o't, ikki olovning o'tasida yashadi. O'talikda joy bormikin... Yo'q, o'tada joy yo'q. Ular qachon ajralishgan, nega ajralishgan, Vazira buni ham bilmaydi. Dadasi ham ro'zg'orlik bo'lib ketgan, onasi ham. Arosatda Vazira qolgan xolos. Nega uni o'ylashmagan? Tili zaboni yo'q uchun odam sanashmagandir".

Zukko o'quvchimiz bu ikki o'tning nima ekanligini shu parchadayoq anglab yetdi, deb o'ylaymiz. Hikoya mazmunini keltirish niyatimiz yo'q. Yagona istagimiz Saida Zunnunova asarlarini o'qing, oila davrasida o'qing, farzandlarining uning kitoblarini tuhfa qiling. Yozuvchi asarlarida inson qalbini bor nazokati, injay tuyg'ulari bilan ochib bergen.

So'zimizni shu hikoyadan pacha keltirish bilan muxtasar qilamiz.

**O'qiyimiz:** "– Kuyov-kelinning baxti uchun! – deb qichqirdi kimdir. Qadah jarangladi. Vazira entikdi. Ko'zyoshlari yuziga tushdi. U ro'molini to'g'rilagan bo'lib, yuzini pana qildi. Uning yuragi unsiz xitob qilardi:

– Bag'ri butunligi uchun, denglar odamlari! Farzandga ota-ona bag'ridek keng, tinch joy bo'lmaydi. Agar uni kemtik qilib qo'ysanglar, ostonasini tillo qilib bersanglar ham tatimaydi. Bu kemtikni to'ldirolmaysizlar. Bolalarining bag'ri butunlikni tilanglar, odamlar!"

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Har qanday tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga tayyor milliy armiyamiz – xalqimiz, mamlakatimizning ishonchli va mustahkam qalqoni ekanligi, hozirgi kunda harbiy kadrlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligi bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasiga jiddiy ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Vatan himoyachilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirishga qaratish hamda ulug’ sarkarda va jangchi sifatida dunyoga tanilgan ajdodlarimizning jangovar ruhiyatini harbiylarga singdirish juda muhim.

Milliy ruh kuchli bo’lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo’ladi. Kelajakda harbiy bo’lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas’uliyat tuyg’usini Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. Yoshlarga hamisha o’rnak va namuna bo’lib kelayotgan chinakam fidoyi harbiy xizmatchilardan oladi. Shuning uchun har bir askar va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va g’urur kuchli bo’lishi kerak. U yuksak bo’lsa, harbiy xizmatchilar o’z oldilariga qo’yligun vazifalarini muvaffaqiyatladi eto oladi.

Jangovar ruhi baland bo’lgan ajdodlarimiz haqida gap ketganda, Zahiriddin Muhammad Boburning kamsonli qo’shin bilan bo’lsa-da, avvaliga Afg'oniston hududini, keyin Hindiston hududini egallab, katta bir sulolaga asos solganini yodga olishimiz kerak.

Najmiddin Kubro dushman bilan jangda ikki marta yaralangan. Birinchi jarohatdan keyin shayx chopon kiyib, yara izlarini yashirishga urinadi.

Ikkinci jarohatdan so’ng Kubro o’qni o’z qo’li bilan ko’ksidan chiqarib, kurashni davom ettirdi. Mo’g’ullar qo’liga tushganda ham dushman bayrog’ini qo’lidan qo’yub yubormadi. Mo’g’ullar bayroqlarini qaytarib olish uchun shayxning barmoqlarini shafqatsizlarcha kesib tashlashdi. Najmiddin Kubro so’nggi nafasigacha Urganchda oddiy xalq bilan yonna-yon kurashdi. U chinakam vatanparvarlik, olyjanoblik va halollikning yorqin namunasi bo’ldi.

Jangovar ruh jangchining quadratli quroliga aylanishi uchun yagona omil sevgidir. Nafaqat jangchining, balki har qanday insонning kurashishi uchun Vatanga, yaqinlariga hamda qadriyatlarga nisbatan muhabbati, hayotda yashashning birdan bir maqsadi hisoblanadi. Bularsiz inson, shunchaki bir tirik organizmdan boshqa narsa bo’lmaydi. Shunday ekan, jangchi Vatani, yaqinlari va qadriyatlari ishqida yonib-kuyar ekan, uning jangovar ruhi cho’qqida bo’ladi.

Bugunga kelib, mamlakatimizning yangi

Mudofaa doktrinasi asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy qurol-yarog’ va texnikalar bilan ta’minalash, harbiy xizmatchilarning jismoniy va intellektual tayyorgarligini oshirish bo’yicha ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mudofaa tizimida inson omili hal qiluvchi rol o’ynamoqda. O’z qasamyodiga sodiq, keng bilim va malakaga ega, aql-zakovatli, mard va azm-u shijoatli harbiylar armiyaning quadratli kuchidir.

“O’zbekiston – 2030” strategiyasi loyihasida jahonda sodir bo’layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga oлган holda Qurolli Kuchlarimiz quadrati, mamlakatimiz mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yana-da oshirishga alohida urg’u berilgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki dunyoda kechayotgan global jarayonlar ogohlilik va hushyorlikni yana-da oshirishni, tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash yo’lida sobitqadam bo’lishni taqozo etmoqda. Shu bois Qurolli Kuchlar raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minalash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko’nikmalarini

oshirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Ayni vaqtida minglab o’quvchi yoshlarni jangovar ruhi ko’tarinki bo’lishi uchun “Vatan tayanchi” bolalar va o’smirlar harakatining o’rni katta bo’lmoqda. Bundan tashqari, boshlang’ich harbiy bilim va ba’zi harbiy elementlarni o’zida jamlagan yoshlar o’tasida o’tkazilayotgan musobaqalar, ularni tolab borishga ko’mat bo’lmoqda. Sanab o’tilgan masalalarni o’z vaqtida amalga oshirish xalqimiz xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bu yo’nalishdagi qizg’in tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash va ularning ro’yobga chiqishiga hissa qo’shish har birimizning burchimizdir. Zero faqat tinchlik-osoyshtalik orqaligina ko’zlagan ezgu maqsadlarimizni ro’yobga chiqarishga, mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishini ta’minalashga erishamiz.

Elyorjon RAHMONOV,  
«Janub sarhadlari» gazetasi  
mas’ul kotibi

## G’URUR KUCHLI BO’LISHI KERAK



Buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning “Moziya qaytib ish ko’rmoq xayrlidir” so’zlariga amal qilib, ortga bir nazar solsam, xotiramda 1999-yil Toshkentda, 2000-yil Surxondayo viloyatining Sariosyo tumanida, 2004-yil Toshkent viloyatining Qibray tumanida ro’y bergen mudhish voqealar jonlanadi. Ona yurtimiz tarixida “qora kun” sifatida iz goldirgan voqealar ortidan nechalab mard Vatan himoyachilarimiz jonini fido qildi...

qo’yildi. Ko’rsatuvda katta leutenant Aziz Tursunovning farzand dog’ida ado bo’lgan onaizori ham so’zladilar. So’zladilar, desam, yolg’on bo’lar, yig’ladilar. Ko’zyoshlari orqali so’zladilar. Mening e’tiborimni tortgani, ona qo’lida tutib turgan qo’l telefonini bo’ldi. Onaizor qo’l telefonini farzandiga tegishlilagini va ushbu telefonni asrashiga sabab farzandining qon dog’lari telefon sirtida qolganligini aytib, ko’zlariga qayta-qayta yosh oldi. Mening ham ko’zlarimga yosh keldi, mard o’g’lonlar ruhiga ich-ichimdan duo qildim.

Fayziobodda izlari qolgan va shu zaminga qo’ylgan Aziz Tursunovning O’zbekiston tinchligini saqlashdagagi jasorati inobatga olinib, “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. U butun O’zbekistonning xalqimizning faxriga aylandi. Kelajak avlod havas bilan boqadigan qahramon sifatida tarixda qoldi. Sheryurak Vatan himoyachisi Aziz Tursunovning pok nomi qalblarimizda mangu yashaydi.

Alisher TOIROV,  
O’zbekiston Jurnalistlar  
uyushmasi a’zosi

## SHERYURAK O’G’LON

2004-yil bugun ham yodimda. Toshkent viloyatida bir guruh qo’poruvchilar tomonidan tinchligimizga raxna solindi. O’sha damda ko’plab Vatanimiz himoyachilar osoyishtaligimizni buzmochchi bo’lganlarga qarshi matonat bilan kurash olib bordilar. Ular orasida fayziobodlik mard o’g’lon Aziz Tursunov ham bor edi...

Keyinroq telekanallardan birida Vatan uchun jonini fido qilgan harbiylarimiz haqida ko’rsatuv

qolib ketmadni, vaqt kelib, men ham ona Vatanimizni o’z jonimdek avaylashga va asrashga qasamyod qildim. Guvoh bo’lganlarning so’zlashicha, Aziz aka safdoshlari bilan terrorchilar tahdidini qaytarishda matonat bilan kurash olib borgan. O’z jonini ayamagan, to ularni yakson etmaguncha qaytishni, to’xtashni bilmagan. Afsuski, yovuzlarning portlovchi uskunasi ishga tushishi bilan...

Hozir o’layman. Aziz Tursunovning o’sha paytdagi holatini ko’z oldimga keltiraman. Uning qalbi butun bo’lgan, bobolardan meros jangovar ruh unga quvvat bergan, deyman o’zimga. Vatanparvarlik bo’lsa, shunchalik bo’lar-da. U qasamyodiga xiyonat qilmadi...

Aziz Tursunov Qibray tumani ichki ishlari bo’limida xizmat qilardi.



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qismida Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot guruhi a'zolari ishtirokida "Biz bir bo'lsak, yagona xalqimiz, birlashsak, Vatanmiz!" g'oyasi asosida "Ma'naviyat marafoni" loyihasi amalga oshirildi.

Tadbirda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, senator Minhojjiddin Hojimatov, falsafa fanlari doktori, professor Jamila Shermuhammedova, siyosiy fanlar doktori, professor Narzulla Jo'rayev, O'zbekiston davlat filarmoniysi xonandasini Faxriddin Nazarov, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, yozuvchilar, taniqli san'atkorlar, harbiy baxshilar hamda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

Dastlab mehmonlar harbiy qismida yaratilgan sharoitlar, harbiy sportchilar hamda yurt posbonlarining oila a'zolari tomonidan

amalga oshirilayotgan tadbir va to'garaklar bilan yaqindan tanishdi. Ular bilan muloqotda mehmonlar tinch va osuda hayotimizni ta'minlayotgan Vatan himoyachilarining fidokorona mehnatini, zahmatli xizmatini e'tirof etdi.

Madaniyat markazida bo'lib o'tgan uchrashevda taniqli san'atkorlar va harbiy baxshilar o'zlarining kuy-ko'shiqlarini hamda terma dostonlarini ijro etib, barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Ma'naviy tadbirdan so'ng o'zbek milliy taomlari hamda bahodirlar sport musobaqalari o'tkazildi.

Milliy taomlar musobaqasida oshpaz harbiy xizmatchilar viloyatlar kesimida osh tayyorlagan bo'lsa, sport musobaqasida pahlavon harbiylar bir-biridan qiyin bo'lgan mashqlarni bajardi. Ularning harakatini kuzatib borgan hakamlar odilona baholab, g'oliblar munosib rag'batlantirildi.

Bu kabi tadbirdarda ma'naviyat va ma'rifat fidoyilarining ishtirok etishi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari qalbida unutilmas taassurot qoldirdi.

**III darajali serjant Akbar AHMEDOV**  
Termiz garnizoni



## ✓ OCHIQ ESHIKLAR KUNI



## YOSHLARNI XUSHNUD ETDI

O'zbekiston oliy harbiy aviatsiya bilim yurtiga Qashqadaryo viloyati Shahrabsabz tumanidagi 68-umumta'lim maktabi hamda Chiroqchi tumanining olis tog'li hududi – Tarag'ay qishlog'iда joylashgan 100- va 109-umumta'lim maktabalarining "Vatan tayanchi" otryadiga a'zo o'quvchilari ekskursiya qildi.

Qarshi harbiy prokururaturasi, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug hamda bilim yurti qo'mondonligi hamkorligida tashkil etilgan "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri yoshlar uchun unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Dastlab bilim yurti saf maydonida yurt posbonlari tomonidan qo'l jangi chiqishlari namoyish etildi. Turli o'quv nuqtalarida yoyilgan qurol-aslahalar namoyishida ertamiz egalari ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldilar.



Ma'lumki, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan ushu bulioliyoh zamon talablariga to'liq javob beradi. O'quv va mashg'ulot xonalari barcha vositalar bilan ta'minlangan. Mehmonlar o'quv laboratoriyalari, reallikka yaqinlashtirilgan parvoz hamda otish trenajyorlari, sport zali, kutubxona, oshxonalar, turli yo'nalishlardagi to'garaklar faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Ayniqsa, bilim yurti muzeyida

mavjud eksponatlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Kursantlar uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlarni ko'rgan yoshlardagi harbiy xizmatchi bo'lish orzusi maqsadga aylangani aniq.

Madaniyat saroyida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug faxriylari, Qarshi harbiy prokururaturasi xodimlari ishtirokida "Uch avlod uchrashuvi" tashkil etildi. Ko'p yillik tajribaga ega mutaxassislar

o'z fikrlari bilan o'rtoqlashib, yoshlarga ta'lim va hunar egallash borasida qimmatli nashhatlarini berdi. Samimiy muloqot jarayonida o'quvchilar o'zlarini qiziqirgan savollarga javob oldilar.

Ekskursiya harbiy okrug boshqaruva apparatida davom etdi. Mehmonlarni yuqorida kayfiyatda kutib olgan mezbon ofitserlar okrug hududi va bu yerda harbiy xizmatchilarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishtirdi. Shuningdek, boshqaruva apparatining ziyo maskani sanaladigan qishki va yozgi kutubxonalar bilan tanishuv yosh kitobsevarlarni xushnud etdi.

Maskanda tashkil etilgan harbiy okrug shonli tarixi muzeyi sohaga doir ko'plab nodir eksponatlarni o'z ichiga olgan. Mazkur muzey haqida va harbiy xizmatchilarning yutuqlari borasida harbiy okrug qo'shninari qo'mondonining o'rinosari polkovnik Isroil Sobirov batatsil ma'lumot berdi. Yoshlar yil sayin takomillasib borayotgan milliy armiyamiz qudrati va harbiy xizmatchilarimiz salohiyati borasida aniq tasavvurga ega bo'ldilar. Bu kabi uchrashuvlar sifatlari ta'limga uyg'un ravishda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

**Surayyo SHODIYEVA,**  
**Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug mutaxassisini**

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bunyod etilgan va yangi o'quv mavsumidan ilk faoliyatini boshlagan Urganch shahridagi Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyida o'quvchilarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi, zamonaviy ta'lif-tarbiya olishi va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan.

## SPORTSEVAR YOSHLAR BIRLASHDI



Ta'kidlash joizki, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tishini ta'minlash, jamoaviy jipslikni mustahkamlash hamda raqobatbardoshlik xususiyatlarni rivojlantirish maqsadida litseyda turli sport musobaqaqlari hamda fan olimpiadalar o'tkazilishi yo'nga qo'yilgan.

Litsey o'quvchilari o'tasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning sportga bo'lgan mehrni

oshirish maqsadida direktor ko'chma kubogi uchun o'tkazilgan mini futbol bo'yicha musobaqa o'quvchilar o'tasidagi sportga ixlosmand yoshlarni yuzaga chiqarishga xizmat qildi.

Shiddatli va murosasiz kechgan bahslarda har bir jamao g'alabaga bo'lgan kuchli intilishni namoyish etib, musobaqa peshqadamiga aylanish uchun harakat qildi.

Musobaqa g'olib va sovrindorlarini tantanali taqdirlash marosimida so'zga chiqqanlar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Besh muhim tashabbus" tufayli bugungi kunda



yoshlariimiz sog'lom, barkamol bo'lib voyaga yetishi, kasb-hunar egallashi va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun barcha sharoitlar yaratilayotganini e'tirof etishdi. Shundan keyin g'olib va sovrindor jamaolar medal, diplom hamda faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Birinchi o'rinni egallagan jamao ko'chma kubog bilan mukofotlandi.

## KO'KRAK NISHONI TOPSHIRILDI

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati yo'lga qo'yilgan. Ayni paytda harakat a'zolariga a'zolik ko'krak nishoni va guvohnomalar tantanali topshirilmoqda.



Qoraqpog'iston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lif vazirligiga qarashli umumta'lif maktablarida ham mazkur tadbirlar yuqori savyada tashkil etilmoqda.

Respublikaning shahar va tumanlaridan jami 692 ta otryad tuzilgan bo'lib, 12 452 nafar o'quvchini qamrab oladi. Hozirgi kungacha 11 745 nafar o'quvchi harakat a'zoligi ko'krak nishoni va sertifikatlarga ega bo'lishdi.

Sentabr-oktabr oylarida – To'rtko'l, Taxiatosh, Qorao'zak, Chimboy, Ellikqal'a, Kegeyli, Beruniy, Nukus, Mo'ynoq, Qonliko'l, Shumanay, Tuxtako'pir, Amudaryo tumanlaridagi maktablarda "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari, tuman hokimligi, mudofaa ishlari bo'limlari, "Vatanparvar" tashkiloti vakillari ishtirokida tantanali marosimlar o'tkazilgan edi.

Yaqin kunlarda Nukus shahri, Qo'ng'irot va Xo'jayli tumanlarida ham "Vatan tayanchi" otryadi a'zoliga ko'krak nishoni topshirilishi rejalashtirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mazkur harakat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barobarida, o'quv yilidan harakatning faoliyatida faol ishtirok etgan hamda matabni a'lo baholarga tamomlagan har bir "Vatan tayanchi" otryadining bir nafar a'zosiga Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadigan tanlab olish tartibiga muvofiq, olyi harbiy ta'lif muassasasiga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma beriladi.

Tavsiyanomaga ega bo'lganlar respublika olyi harbiy ta'lif muassasalarining tegishli ta'lif yo'nalişlariga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra, to'plagan balining 5 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklida imtiyozga ega bo'ladi. Tavsiyanomalar berilgan sanadan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi. O'tgan yili Qoraqpog'iston Respublikasida jami 693 ta otryad tuzilib, a'zolar soni 10 214 nafarni tashkil qilgan. Ulardan 665 nafar a'zo imtiyozli tavsiyanomaga ega bo'lishdi. Shundan 161 nafar o'quvchi olyi harbiy ta'lif muassasasiga o'qishga topshirdi va 19 nafari kursantlar safiga qabul qilindi.

## ✓ HAMKORLIK

Vatanimiz Mustaqilligining 32 yillik bayrami arafasida

Urganch shahrida faoliyatini boshlagan Jaloliddin Manguberdi

harbiy akademik litseyida

Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti bilan hamkorlik memorandumi imzolandi.

Prezidentimizning 2023-yil 12-iyundagi "Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, litseyga ilmiy-metodik yordam ko'rsatish maqsadida Urganch davlat universiteti va Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti biriktirilgan.

Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti boshlig'i polkovnik Shavkat Mamajonov rahbarligida kelgan ishchi guruh ikki kun davomida litsey faoliyi, ta'lif-tarbiya jarayoni, bu yerda o'quvchilar va pedagoglar uchun

## LITSEYDA MEMORANDUM IMZOLANDI



yaratilgan sharoitlar, ilmiy-uslubiy va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rgandi. Pedagog va o'quvchilar bilan mahorat va ochiq darslarni o'tkazish asnosida ta'lif berish jarayonida tajriba hamda fikr-mulohazalar almashildi.

Tadbir davomida Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi hamda Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti o'tasida hamkorlik memorandumi imzolanib, unga ko'ra, Chirchiqdagi olyi harbiy



ta'lif muassasasi endilikda o'quv-uslubiy hamda ta'lif-tarbiya masalalari bo'yicha litseyga amaliy ko'mak berishi, professor-o'qituvchilar bilan malaka va tajriba almashish tizimining yo'nga qo'yilishi belgilandi. Mazkur tadbirda Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti boshlig'i joriy semestrda eng yuqori natijalarga erishgan litsey o'quvchilarini bir haftalik sayohat uchun harbiy bilim yurtiga olib borishga va'da berdi. Zamonaviy ta'lif jarayoni bilan yaqindan

tanishish, pedagogik tajriba almashish va malaka oshirish uchun litsey o'qituvchilar bilan Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti qoshida malaka oshirish kurslarini tashkil etish, trening hamda tajriba almashish bo'yicha tashabbusni ilgari surdi.

Tadbirda endilikda harbiy litseyning o'quv adabiyotlari va uslubiy qo'llanmalarini nashrdan chiqarish Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti tarixi va faoliyatiga bag'ishlangan alohida tematik sinfxona jihozlanib, ta'lif dargohiga 300 ga yaqin o'quv qo'llanma hadya etildi.

# KORRUPSIYA — JAMIYAT KUSHANDASI

Harbiy prokuratura organlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda mudofaa ishlari organlari rahbarlari bilan korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot-profilaktika tadbirlari o'tkazildi.



Xususan, mudofaa ishlari boshqarmalari va ularning tuman (*shahar*) bo'limlari boshliqlari ishtirokida bo'lib o'tgan ochiq muloqtlarda jinoyatlarning huquqiy oqibatlari haqqa batafsil so'z yuritildi.

Firibgarlik, pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati bilan bog'liq jinoyatlar uchun nazarda tutilgan javobgarlik, jazo va huquqiy ta'sir choralar xususida atroficha ma'lumotlar berildi.

Suhbatlarda mulohaza yuritilgan mavzular bo'yicha berilgan savollar yuzasidan hayotiy misollar bilan qonuniy asoslarda huquqiy tushuntirishlar berib o'tildi.

Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokurorining yordamchisi

## O'RGANISHLAR DAVOM ETMOQDA

Harbiy prokuratura organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi tegishli qarori bilan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan harbiy tuzilmalardagi qurilish-montaj ishlari doimiy o'rorganib borilmoqda.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining o'rinnbosari Q.Istroilov tomonidan Toshkent shahri Shayxontohur tumanida joylashgan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hududida barpo etilayotgan maxsus yong'in-qutqaruv otryadi binosi o'rorganildi.

Shuningdek, Xorazm viloyatidagi harbiy tuzilmalarda o'rghanish tadbirlari olib borilmoqda. Xususan, Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy obyektlarda mavjud shart-sharoitlar, harbiy qurolyarog' va texnikalar shayligi o'rGANilib, mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

O'rGANishlar jarayonida hududda amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari e'tibor qaratilib, bu boradagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya etish masalalarida mutasaddilarga tavsiyalar berib o'tildi.

Adliya kapitani Maximudjon ARTIKOV,  
Respublika Harbiy prokuraturasi  
bo'lim harbiy prokurori

## ✓ DO'STLIK ALOQALARI

O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalari yaqin qo'shni mamlakatlar sifatida ko'p yillik yagona tarix, o'xshash madaniyat, mushtarak til va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligiga ega. O'zaro do'stona aloqalar bilan bog'langan bu ikki qardosh millat vakillarining bugungi munosabatlari yanada mustahkamlanib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining Markazi Osiyo davlatlari bilan olib borayotgan yaqin qo'shinchilik siyosati doirasida, Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara o'tkazish punktlarining faoliyat olib borayotgani o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'nga qo'yish va savdo-sotiq aloqalarining kundan kunga rivojlanib borishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, Andijon viloyatidagi chegara o'tkazish punktlarida fuqarolar uchun yaratilayotgan shart-sharoit va quayliklar ham ikki davlat fuqarolarining quvonchi va minnatdorligiga sabab bo'limoqda.

Bu esa, o'z navbatida, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "O'rtamizda chegara emas, do'stlik darvozalari bo'ladi" degan ezgu tamoyilning amaldagi ifodasi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ana shunday yaqin do'stlik va hamkorlik aloqalari ikki davlat sarhadlari daxlsizligini ta'minlayotgan yurt posbonlari o'rtasida yanada yangi bosqichga chiqayotganligi natijasida, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara

qo'shinchilari hamda Qirg'iziston Respublikasi Milliy xavfsizlik davlat qo'mitasi chegara xizmati o'ttasida doimiy uchrashuvlar o'tkazilib, ikki tomonlama manfaatli kelishuvlar amalga oshirilib kelmoqda.

Navbatdagi uchrashuv doirasida, Qirg'iziston Respublikasi chegara xizmati vakillari Andijon viloyatida joylashgan "Xonabod" o'tkazish punktidagi mamlakatimiz chegarachilar tomonidan kutib olindi.

Tashrifning asosiy qismida ikki davlat sarhadlarini himoya qilayotgan harbiy xizmatchilar uchun mahorat darslari tashkil etilib, mazkur jarayonda davlat chegaralari daxlsizligini ta'minlash bo'yicha hamkorlikda harakatlanish, aloqa va kuzatuvchi moslamalar imkoniyatidan keng foydalanan hamda chegara buzzg'unchisini qo'liga olish operatsiyasini to'g'ri tashkil etish bo'yicha o'zaro kelishuvlar amalga oshirildi.

Mashg'ulot so'ngida har ikki davlat chegara vakillari tomonidan chegara xizmatini bilan birga xizmat faoliyatimizga taalluqli bo'lgan qator masalalar yuzasidan o'zaro kelishib

## Hamkorlik ko'priklari



jonbozlik ko'rsatgan harbiy xizmatchilarga esdalik sovg'alar topshirildi.

Samimiy ruhda boshlangan kunning ikkinchi yarmida, ikki davlat chegara vakillaridan iborat jamoalar tuzilib, ular o'ttasida futbol musobaqasi tashkillashtirildi. Qizg'in va murosasiz bahslar yakuniga ko'ra, o'rtoqlik uchrashuvida g'olib bo'lgan jamoalarga do'stlik ramzi sifatida kuboklar taqdim etildi.

— Bugun juda samarali kun bo'ldi. Dastlab qo'shni mamlakatdagi hamkasblarimiz bilan birga xizmat faoliyatimizga taalluqli bo'lgan qator masalalar yuzasidan o'zaro kelishib

oldik. So'ng bir dasturxon atrofida o'tirib tushlik qilgach, futbol musobaqasida do'stona bellashdik. Barchaning kayfiyat ko'tarinki. Biz bunday uchrashuvlarni tez-tez o'tkazib turishga harakat qilamiz.

Chunki bugun mintaqamiz va dunyoda ro'y berayotgan voqe'a-hodisalar hamda keskinliklarga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Ana shunday vaziyatda mamlakatlarimiz sarhadlari daxlsizligini o'zaro kelishgan holda, hamjihatlikda ta'minlash bizning zimmamizdagi ulkan mas'uliyat ekanini yaxshi anglaymiz va dunyodagi eng oliy ne'mat

bo'lgan tinchlikni ta'minlash yo'lida birgallikda bor kuch-g'ayratimizni safarbar etishga va'da beramiz, — deydi podpolkovnik Umidjon Abdusalomov.

Albatta, o'tkazilayotgan bu kabi uchrashuvlar o'zaro hamkorlik ko'priklarini mustahkamlab, har ikki davlat tomonidan ham tinchlik va farovonlik yo'lida tashlanayotgan qadamlarga yanada ildamlik va yangicha ruh bag'ishlashi, shubhasiz.

Mayor  
Farida BOBOJONOVA  
DXX Chegara qo'shinchilari

# ARMIYAMIZ ATIETI BIRINCHI



Tojikistonning Dushanbe shahrida 4,6 va 9 kilometr masofaga yugurish bahslari o'tkazildi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Marina Xmelevskaya 9 kilometr masofaga yugurish bahslarida g'olib chiqib, musobaqaning oltin medali bilan taqdirlandi.

Poyoniga yetib borayotgan bu yilgi mavsum musobaqalarini yengil atletikachilarimiz muvaffaqiyatlari yakunlamoqda. Jumladan, Tailandning Bangkok shahri mezbonlik qilgan Osiyo championatida 4 nafar atletimiz shohsupaga ko'tarilgan bo'lsa, Xitoyning Xanchjou shahrida kechgan "Kichik Olimpiada", ya'ni XIX yozgi Osiyo o'yinlarini yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi 2 ta oltin, 2 ta kumush va bitta bronza, jami 5 ta medal jamg'arish bilan yakunladi. Ushbu muvaffaqiyatlarga armiyamiz sportchilari munosib ulush qo'shishdi. Ta'kidlash joiz, yengil atletika bo'yicha mamlakatimiz sportchilarining xalqaro maydonidagi yutuqlariga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari doim o'z hissasini qo'shishgan va bundan Tojikistonda o'tkazilgan yugurish bahslari ham mustasno bo'lindi.

## QILICHBOZLIK

Dunyoning turli mamlakatlarda qilichbozlikning barcha yo'nalishlari bo'yicha yoshlar o'ttasida jahon kubogi bosqichidan o'r'in olgan musobaqalar bo'lib o'tdi. Tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham joy olgan mamlakatimiz yosh qilichbozlar mazkur bahslarda muvaffaqiyatlari qatnashdi.

raqiblarni mag'lubiyatga uchratishga muvaffaq bo'ldi. Championlik uchun kechgan final bellashuvida yigitlarimiz Turkiya jamoasini 45:42 hisobida dog'da qoldirishdi.

El-Salvador mamlakati shpaga quroilda kechgan bellashuvlarga mezbonlik

qildi. Qizlar o'ttasida kechgan bahslarda "Xanchjou - 2022" yozgi Osiyo o'yinlari sovrindori Dilnaz Murzatayeva barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Murzatayevaga yarim finalda 14:15 hisobida imkoniyatni boy bergen boshqa

# YOSHLARIMIZDAN MEDALLAR SHODASI



19–24-noyabr kunlari dunyo qilichbozlar mamlakatimiz poytaxtida jamlanib, jahon kubogi bahslarida ishtirok etishi kutilmoqda. Ushbu musobaqaga mamlakatimiz yetakchi qilichbozlar, jumladan MVSM vakillari ham puxta hozirlik ko'rmoqda. Yosh qilichbozlarimiz esa dunyoning turli mamlakatlarda o'tkazilgan jahon kubogi bosqichidan o'r'in olgan musobaqalarda ishtirok etib, medallar shodasiga egalik qilishdi va bu bilan bo'lajak yirik musobaqa oldidan aka hamda opalarini ruhlantirishdi. Xususan, Eron poytaxti Tehron shahri yoshlar o'ttasida jahon kubogi bosqichining sablyo bo'yicha yigitlar o'ttasidagi bellashuvlarini qabul qildi. Mazkur musobaqada ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Islombek Abdazov oltin medalni qo'lga kiritdi. U murosasiz kechgan final jangida quvaytlik Muhammad Abdulkarimni 15:6 hisobida mag'lub etdi. Jamoaviy dasturda ishtirok etgan Islombek Abdazov, Azizbek Dauletnazarov hamda Sardor Abdukarimbekov triosi barcha

bir hamyurtimiz Bibimaryam Saparova esa bronza medal bilan taqdirlandi.

Bahraynning Manama shahrida jahon kubogining sablyo yo'nalishida bahslar o'tkazildi. Osiyo o'yinlari g'olib Gulistan Perdibayeva bu yerda ham oltin medalni qo'lga kiritdi. Hamyurtimiz yarim final jangida bolgariyalik Kristina Milanovani 15:8, finalda avstraliyalik Veronika Vasilevani 15:10 hisobida mag'lub etdi. Terma jamoamiz a'zosi Xerrera Lara Luiza Fernanda esa ushu musobaqaning bronza medaliga sazovor bo'ldi. Qizlar o'ttasidagi jamoaviy dastur bahslarida ham yosh qilichbozlarimiz yuqori mahorat namoyish etishdi. Nargiza Jaksibayeva, Gulistan Perdibayeva, Fernanda Errera va Samira Shokirovadan iborat O'zbekiston qizlar terma jamoasi barcha raqiblarini yengib, oltin medal bilan birgalikda jahon kubogini qo'lga kiritdi. Kvartetimiz final jangida Bolgariya jamoasini 45:30 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

## SHOHSUPA (xabarlar)




### MARAFON

Registon maydonida "Samarkand Marathon" an'anaviy xalqaro xayriya marafoni bo'lib o'tdi. Unda 40 ga yaqin davlatdan uch ming nafardan ziyyod ishtirokchi qatnashdi. 2, 5, 10 km masofa bo'yicha bahslarda o'zbekistonlik sportchilar g'oliblikni nishonladi. 21 km masofaga o'tkazilgan erkaklar bahsida rossiyalik Mixail Kulkov, ayollar o'ttasida esa belaruslik Svetlana Kudzelich g'olib chiqdi. 42 km masofaga yugurish bo'yicha erkaklar o'ttasida o'zbekistonlik Bekzod Boymatov, ayollar bahsida ukrainalik Yekaterina Vasilchenko marra chizig'i birinchi bo'lib kesib o'tdi.



### SUVGA SAKRASH

Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur shahrida suvgan sakrash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro turnirda yurtimiz sharafini himoya qilgan Igor Myalin musobaqaning 3 metr balandlikdagi tramplindan sakrash musobaqasida eng yuqori natija ko'satdi va shohsupanining yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Hamyurtimiz Vyacheslav Kachanov esa kumush medalni qo'lga kiritdi. Igor va Vyacheslav tandemis musobaqaning juftlik bahslarida ham qatnashdi. Ushbu juftlik 3 metr balandlikdan suvgan sakrash bo'yicha oltin, 10 metr balandlikdan sakrash musobaqasida bronza medalga ega chiqdi.



### BOKS

Qozog'istonning Ostona shahrida o'smirlar va yoshlar o'ttasida boks bo'yicha Osiyo championati o'tkazildi. Janglar O'zbekiston terma jamoasi vakillari uchun muvaffaqiyatlari yakunlandi. O'smirlar terma jamoamiz (yigitlar va qizlar) mazkur qit'a birinchiligidining 4 ta oltin, 7 ta kumush, 11 ta bronza, jami 22 ta medalni jamg'argan bo'lsa, yoshlarimiz 8 ta oltin, 8 ta kumush, 4 ta bronza, jami 20 ta medalni qo'lga kiritdi.

### SHAXMAT



Buyuk Britaniyaning Duglas shahrida tashkil etilgan "Grand Swiss FIDE" xalqaro turniri yakunlandi. So'nggi 11-turgacha musobaqaning yakka peshqadamligiga hech bir shaxmatchi erisha olmadidi. Poyoniga yetgan turnir sarhisobiga ko'ra, hindistonlik Vedit Santosh 8,5 ochko bilan musobaqaning bosh sovriniga ega chiqdi. Mamlakatimiz shaxmatchilaridan Javohir Sindorov 7 ochko bilan 8-o'rinni egallagan bo'lsa, xuddi shunday ochko bilan Nodirbek Abdusattorov koefitsiyentlar hisobiga 12-pog'onadan joy oldi.



### PROFESSIONAL BOKS

Rossiyaning Sochi shahrida katta professional boks oqshomi o'tkazildi. Markaziy jang birinchi o'rta vaznda hamyurtimiz Fazliddin G'oibnazarov (11-2-0) hamda WBA yo'nalishida sobiq jahon championi, rossiyalik Rajab Butayev (15-1-0) o'ttasida kechdi. 10 raund etib belgilangan jangning 4-raundida Fazliddin texnik nokautga uchradi. Yana bir bokschimiz Hasanboy Do'smatov (6-0-0) va JAR vakili Sifamandla Baleni (21-6-2) o'ttasidagi jang esa 10 raund davom etdi. Hakamlarning yakdil qarori bilan Hasanboy o'zining 7-g'alabasini nishonladi. Yarim o'rta vaznda ikki bokschimiz – Botir Ahmedov (10-3-0) va Muhammadsalim Sotvoldiyev (7-8-2) o'zaro kuch sinashdi. Jang 3-raundda Sotvoldiyevning jarohati bois to'xtatildi.



## Многонациональная семья Хамита Саматова

В небольшом городе Каттакурган Самаркандской области в 1910 году в молодой семье Абдусамата и Мангитой родился мальчик, которого назвали Хамитом. Трудные были времена, люди жили плохо, не хватало продуктов, чтобы прокормить семью.

Абдусамат работал не покладая рук. В 1913 году в их семье родился еще один мальчик, которого назвали Азимжоном. В возрасте семи лет Хамит пошел в школу, а после уроков помогал родителям по хозяйству...

Началась война, многие жители Узбекистана добровольно ушли на фронт, среди них был и Хамит Саматов. В составе 90-й отдельной (узбекской) стрелковой бригады Хамит Саматов участвовал в обороне Москвы, в боях под Можайском.

С августа 1941 года в Узбекистан начали прибывать эшелоны с эвакуированными из прифронтовых районов людьми. Жители нашей республики проявляли о них большую заботу, помогали с жильем, питанием и одеждой. Особое внимание было проявлено к эвакуированным детям, потерявшим своих родителей.

По сведениям, только в Ташкенте 643 семьи и 69 коллектива приняли на

воспитание от 10 и более детей, оставшихся без родителей. Всего более 4,5 тысяч детей разных национальностей были приняты в семьи узбекистанцев. В частности, семья Шаахмеда Шамахмудова усыновила 15 сирот, Хамита Саматова – 13 детей, а Фатима Касымова – председатель колхоза им. Энгельса Самаркандской области, мать шестерых детей – взяла на воспитание 12 детей. Семья Султанахмада Камбарова из Наманганской области усыновила 11 детей разных национальностей.

Героические подвиги совершили воины-узбекистанцы в боевых рядах защитников Москвы, в рядах прославленной Панфиловской дивизии, в составе которой было 180 воспитанников Ташкентского пехотного училища. Воину Хамиту Саматову за храбрость и смелость в борьбе с фашистскими захватчиками под Москвой было присвоено воинское звание «сержант».

Командир взвода старший сержант Хамит Саматов участвовал во многих боях и операциях, в частности в обороне Сталинграда, освобождении Харькова, Запорожья, форсировании Днепра. В ночь с 17 на 18 октября 1943 года Хамит вместе со своим личным составом в количестве 38 человек на самодельных плотах и лодках форсировали реку Днепр в Запорожье. Ночь, вокруг было темно, но фашисты заметили как на плотах переправляются солдаты через реку Днепр. Началась стрельба из пушек по воинам, переправляющимся через реку. Один снаряд попал на плот, где находился Х. Саматов. Снаряд разорвал плот, многие бойцы погибли, несколько из них получили ранения, в том числе Саматов тоже получил тяжелое ранение.

Уроженка Запорожья Надежда Николаева вместе с матерью увидели на берегу раненного Хамита и забрали его к себе в дом.

Зимой 1944 года врачи признали Хамита Саматова негодным к

службе, он был комиссован и направлен с фронта домой – в Каттакурганский район Самаркандской области. На вокзале к нему подошел мальчуган и попросил хлеб. Он дал ему кусочек хлеба и сказал: «Пойдем со мной, я тебя дома накормлю». По пути домой, Хамит подобрал еще одного мальчика, который сидел за вагоном. Хамит назвал старшего мальчика Кучкаром (русский, ему было где-то 4-5 лет), а младшего Арсланом (армянин, где-то 2-3 годика), и дал им свою фамилию Саматов.

С течением времени в семью Саматовых прибавлялись дети, это Клепиков Донак (русский), Лиза (полька), Рузиев Каримжон (узбек), Рамазанов Керим (татарин), Шираев Иван (русский), Саматов Нурумхаммад (узбек), Турсунов Миролим (узбек), Бахромов Суннат (узбек), Кадиров Мурад (узбек), Салимов Рашид (узбек), Салимова Ойдин (узбечка), и их стало тринадцать.

В 1945 году Хамит Саматов трудился в запасном полку в Каттакургане, откуда отправляли на фронт необходимые вещи, продукты и запасные части для техники. В доме Хамита не хватало продуктов, нечем было кормить детей. Чтобы купить продукты, он продал свою солдатскую шинель и на эти деньги купил четыре мешка пшеничной муки. Командир полка подполковник Василий Мельник посетил дом Саматовых и убедился, что действительно у них живут тринадцать детей. «Своим глазам не поверил, у Хамита 13 детей. Вернувшись в полк, я издал приказ, с сегодняшнего дня выделить одежду детям Хамита Саматова и ежесуточные продукты на всю семью», – сказал удивленный подполковник.

Родители Хамита постарели, тяжело было матери ухаживать за детьми. «Тебе надо жениться», – говорила мать Хамита. «Кто за меня выйдет, я же калека, больной», – говорил он матери. «Сынок, ты согласись, а мы вместе с отцом найдем тебе невесту», – сказала мать. «Я согласен, но прежде я должен убедиться сам, согласна ли эта девушка выйти за меня», – ответил ее сын.

Хамит Саматов встретился с девушкой по имени Санобар, которую рекомендовала мать. При разговоре с ней он спросил, согласна ли она выйти за него замуж. «Я после тяжелого ранения, хромаю на одну ногу. К тому же у меня еще есть дети», – сказал ей Хамит. «Вы же получили ранение, защищая нас на войне, поэтому я согласна», – сказала Санобар.

Кроме тринадцати детей у них еще родились шестеро детей – пятеро сыновей и

одна дочь. Старшего сына назвали Рахматилло, затем родились Файзулло, Баходир, Абдулло, Хабибулло и дочь Амина. Все дети жили дружно в семье.

В 1975 году в газете «Комсомольская правда» была напечатана статья о подвигах Хамита Саматова не только на фронте, но и в тылу. Дети семьи Саматовых и фотография Хамита в газете вдохновила Надежду Ивановну – женщину, которая спасла тяжело раненного солдата при форсировании Днепра. Надежда Ивановна в 1976 году приехала в Самарканд и сама убедилась, что у Хамита большая и многонациональная семья.

Старший сын Кучкар после войны переехал и жил в Оренбурге, Арслан Саматов вместе со своими дочерьми проживает в колхозе «Победа» села Камышина Клявлинского района Самарской области. Дружная семья Саматовых и сейчас поддерживает связь с детьми, внуками и правнуками. Большинство детей Хамита Саматова разъехались по союзным республикам.

Узнав о разрушительном землетрясении, произошедшем 26 апреля 1966 года в Ташкенте, все собрались и приехали к отцу в Каттакурган. Дом Саматовых был немного разрушен, и всей семьей братья построили новый дом. Дети и внуки Хамита Саматова ежегодно приезжают к отцу со всех концов большой, необъятной страны. «Мы все были дружные, родные, нас никто не делил на национальности, говорили «это дети Хамита», – вспоминает сын Файзулло Саматов.

30 августа 2023 года по инициативе хокима Каттакурганского района Гавхар Закировны Алимовой в городе Каттакурган был установлен памятник в честь семьи Саматовых. Памятник был создан скульптором Ботиром Кулиевым.

Следует отметить, что история второй мировой войны должна быть такой, какой она есть на самом деле. Никто не должен исказить те факты о войне, которые являются истинным доказательством тех страшных и суровых времен. Мы должны рассказывать подрастающему поколению о том, какой ценой была достигнута победа на той войне. Работа наших ученых по поиску фактов о войне, документов пропавших без вести воинов и детей, оставшихся сиротами, поможет нам восстановить полную картину войны и служит доказательством истинного положения суровых дней 1941 – 1945 годов.

Д. НАСИРОВ,  
главный специалист  
Государственного музея  
«Шон-шараф»

Ajdodlarimiz asrlar davomida o'z ozodlik va erki uchun kurash olib borishgan. Bu kurashlarda tajriba orttirishgan. Ular tomonidan qo'llanilgan jangovar taktika o'ziga xos harbiy san'at darajasiga ko'tarilgan.



# HARBIY HIYLALAR Ning QO'LLANILISHI

*rejasini buzish, keyin uning ittifoqchilarini safdan chiqarish, keyingi o'rinda uning qo'shinlarini tor-mor etish va eng yomon qal'alarni qamal qilish", – deb yozadi u. Sun Szi sarkardaning roliga katta ahamiyat beradi. U o'z asarida "qachonki sarkarda bo'sh va talabchan bo'lmasa, jangchining o'rgatilishiha aniqliklar bo'lmasa, unda sarkardalar va jangchilarning o'talarida hech qanday doimiy bog'liqlik yo'q, unda qo'shining jangovar tartibi yagona tizimga ega bo'lmaydi – bu qo'shining parokandaligi demakdir", – deb yozgan. Sun Szi sarkardaning shaxsiy sifatlarini ko'rsatib o'tadi. "Qachonki sarkarda hujum qilayotib shuhrat ortidan quvmasa, chekina turib uydatdan qo'rmasa, qachonki u faqat xalqi va hukmdorining himoyasi to'g'risida o'ylasa, bunday sarkarda – mamlakat uchun javohirdir".*

Umuman, Sun Szi tuzuklarida qadimgi Xitoy harbiy san'atining holati to'liq va chuqur yoritilgan. Sun Szining hikmatlari shundan iboratki, u birinchilardan bo'lib jangovar harakat usullarini nazariy ifodalab berishga harakat qildi, ulardan dushmanni tor-mor etishda foydalana bilih kerakligini ko'rsatdi. Uning ta'limoti bugungi kunda ham amaliy ahamiyatga egaligi bilan qimmatlidir.

Armiya tuzish va boshqarish borasida buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temurning tarixiy tajribasi ham diqqatga sazovordir. Ma'lumki, Amir Temur jahon harbiy tarixida mukammal muntazam armiya tuzish va boshqarish, harbiy harakatlar davrida falanga taktkasini qo'llash bilan bir qatorda, jangovar harakatlarni amalga oshirishda ayg'oqchilik xizmatiga katta e'tibor qaratgan. Uning ayg'oqchilarini dunyoning turli mamlakatlarida savdogar, sayyoh, qalandar, munajjim, folbin-u jodugar sifatida doimiy ravishda Amir Temurga ma'lumotlar yuborib turar edilar. Razvedka va kontrrazvedka Amir Temur saltanatida davlat siyosatining bosh bo'g'ini bo'lganligi haqida "Temur tuzuklari" dagi "Mulki mamlakat, sipoh-u raiyat ahvoldan xabardor va ogoh bo'lib turish tuzugi" da shunday qayd etilgan: "Har bir sarhad, viloyat, shahar va lashkarda xabar yozuvchi (xabarnavis)lar tayin qilinsinki, hokimlar, raiyat sipoh o'zining va yot-begona lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirganchiqsan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar, qo'shni podsholar, ularning gaplari, ishlari va uzoq o'lkalarda bo'lib, mening dargohimda yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi batafsil xabarlarni rostlik, to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar. Va yana amir etdimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oymening arzimga yetkazib tursinlar".

Mana shu jumlalardan ko'rinib turibdiki, Amir Temur davlatida razvedka xizmati harbiy hiylalarning eng yuqori cho'qqisi hisoblangan. Harbiy hiylakorlik va ziyaraklik harbiy san'atning tarkibiy qismi bo'lib, qo'llashni rivojanishiga, takomillashuviga sabab bo'ldi. Fan-texnikaning rivojanishi va uni harbiy sohaga joriy etilishi harbiy hiylalarga qarshi vositalarni vujudga kelishiga imkoniyatlar yaratmoqda. Bu o'z o'rnda harbiy xizmatchilardan harbiy harakatlar davrida sharoitdan kelib chiqqan holda nostonart qarorlar qabul qilishni taqozo etadi.

askar va komandirlarning bu yuksak harbiy san'atni qanchalik darajada egallaganliklarini ko'rsatib turadi. Harbiy hiylakorlik va ziyaraklikni muvaffaqiyat bilan qo'llanishi – jangchining harbiy ishni, o'z qurolini, o'z harbiy mutaxassisligini qanchalik yaxshi bilishiga bog'liqdir. Mohir snayperdan snayperlik uchun eng muhim narsa nima deb so'rasangiz, u hiyla va menganlik bilan otishdir, – deb javob beradi. Bu qisqacha javobda harbiy ishni a'lo bilishni, dushmanni ustalik bilan aldab g'alabaga erishishni talab qiluvchi snayperlik san'atining tub mohiyati ifodalangan. Ziyaraklik va harbiy hiylakorlik ajdodlarimizga xos bo'lgan qimmati xususiyatdir. Malika To'maris, cho'pon Shiroq, Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur, Bobur kabi vatandoshlarimizning jangdagi topqirig'i doimo ularning jangdagi g'alabasining kaliti bo'lgan. Ammo har qanday qobiliyat o'zini to'la-to'kis amalda ko'rsata olishi uchun uni rivojlanirish va tarbiyalash kerak.

Agarda biz buyuk davlat arbobi va harbiy sarkarda Amir Temur hayotini olib qarasak, u turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egallaganini ko'ramiz. Natijada Amir Temur nafaqat ona yurtini, shu bilan birga rus yerlarini mo'g'ul bosqinchilaridan, Yevropani Boyazid I Yildirimning tajovuzidan ozod qildi, Yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi. Shu sababli Amir Temurning davlat qurish tajribasi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharq-u G'arb davlatlariga o'nak va andaza bo'ldi.

Bobur mohir lashkarboshi, dovyurak bahodir edi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan "Bobur" ("Sher") laqabini oladi. Deyarli butun umri davomida Bobur ko'p urush va yurishlarda ulkan harbiy tajriba to'plagan. Bobur harbiy vaziyatni tez payqab oluvchi, strategik rejalarini ustalik bilan amalga oshiruvchi, qo'shin va quroldan yaxshi foydalananuvchi, raqiblarining zaif tomonlarini sezgirlik bilan aniqlab oluvchi, mushkul hollarda o'zini yo'qotmaydigan, g'alabadan g'ururlanib ketmaydigan sarkarda edi. U doimo qo'shining oldingi safida bo'lar, xavf-xatarni pisand qilmas, harakatlarda navkarlarga o'zi namuna bo'lar, og'ir damlarda ularni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlar, dalda berar, qo'shin bilan har qanday mashaqqat va g'alaba gashtini birga totar edi. Bundan tashqari, Zahiriddin Muhammad Bobur chidamiliik, matonat, jasurlik, o'limga tik boqish, o'ziga va o'z taqdiriga ishoni kabi xislatlarga ega ediki, bu fazilatlar doimo unga kishilarni oлга yetaklash, g'alabaga erishish imkonini bergen.

Harbiy hiylakorlik va ziyaraklik – askarlar ijodiy fikrining ifodasi bo'lib, jang maydonidagi o'z harakatlari haqidagi mulohazalarining, o'z Vatanini cheksiz seuvuchi va uning dashmanlariga nafrat bilan qarovchi askarning harbiy san'atining natijasidir. Insoniyat tarixidagi urushlar harbiy harakatlar davrida harbiy hiylalar qo'llashni rivojanishiga, takomillashuviga sabab bo'ldi. Fan-texnikaning rivojanishi va uni harbiy sohaga joriy etilishi harbiy hiylalarga qarshi vositalarni vujudga kelishiga imkoniyatlar yaratmoqda. Bu o'z o'rnda harbiy xizmatchilardan harbiy harakatlar davrida sharoitdan kelib chiqqan holda nostonart qarorlar qabul qilishni taqozo etadi.

Podpolkovnik I. XOLOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
Qurollanish va otish kafedrasи  
o'qituvchisi.

Podpolkovnik F. ABDURAZAKOV,  
Qurollanish va otish kafedrasи siki  
boshlig'i

Aleksandr Makedonskiyning otasi Filipp dushmanni necha marta qurol kuchi bilan yenggan bo'lsa, shuncha marta chalg'itish va so'z bilan yenggan ekan. U ko'proq so'z yordamida chalg'itish yo'li bilan qo'lga kiritilgan g'alabani ma'qul ko'rardi. Chunki bunda ko'proq o'zining hissasi bo'lar edi.

Turli sharoit va vaziyatlarda jang olib borishda harbiy hiylalar qo'llash va ularning samaradorligi masalasi tarixiy tajribalarga asoslangan holda yoritilgan.

Jang san'atida harbiy hiylalarning o'ziga xos o'rni va roli bor. Aksariyat hollarda jangdagi g'alabani katta miqdordagi qurol-aslasiga va odam soni emas, balki to'g'ri tanlangan taktika, kerakli vaqtida dashmanga pand berish, uni g'aflatda qoldirish alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda davlatlar o'tasida urush olib borish qonun-qoidalarini belgilab beruvchi xalqaro huquq normasi hisoblangan Jeneva konvensiyalarini ham jangovar harakatlar vaqtida harbiy hiylalarning qilishga taqilamaydi.

1949-yil 12-avgustdagji Jeneva konvensiyalariga Xalqaro qurolli mojarolar qurbanlarini himoya qilishga doir qo'shimcha protokolning 4-bo'limi 37-moddasida harbiy hiylalar qo'llanilishi mumkinligi aytilgan va ular dushmanni chalg'itish yoki shoshqaloqlik bilan harakat qilishga undash uchun mo'ljallanganligi ham ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, harbiy hiylalarga misol tariqasida: niqbplash, pistirmalar qo'yish va yolg'on axborot tarqatish usullari ko'rsatib o'tilgan.

Tarixan olib qarasak, qadim zamonlardan tarixchilar jang voqealarini yoritanlarida harbiy hiylalar bilan bog'liq jangovar harakatlarni alohida yozganlar. Bu borada qadimgi Rim tarixchilari Diodor va Poliyenni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Diodorning "Tarixiy kutubxonasi" asarida Aleksandr Makedonskiy harbiy

yurishlari, unga qarshi sug'diyonaliklarning kurashlari masalalari yoritilgan bo'lsa, Poliyenning "Harbiy hiylalar" nomli kitobida o'z davrining mohir sarkardalarini va ularning jangovar mahoratlari haqida boy ma'lumotlar berilgan. Vatandoshimiz bo'lgan Shiroqning afsonaviy qahramonligi haqidagi rivoyatlar ham Poliyenning mazkur asari orqali bizgacha yetib kelgan. Yana bir rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf Spitamenning makedoniyalik bosqinchilarga qarshi kurash taktikasi haqida ma'lumotlar berib o'tgan.

Harbiy nazariyotchilar urush vaqtida harbiy hiylalar ishlatalish bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borganlar, ularni qo'llash usullarini yaratganlar. Bu borada Xitoy harbiy nazariyotchisi Sun Szini alohida ta'kidlab o'tish lozim. U shunday yozadi: "dashmandra nimaiki yaxshi narsa bo'lsa, uni izdan chiqaring, ularning amaldorlarini va mashhur kishilarini mavqelariga yarashmaydigan ishlarga jaib etinglar. Dushmanning eng yaramas odamlari bilan maxfiy aloqada bo'linglar, hukumatiga halaqit beringlar, har yerda nizo urug'in sochinglar, norozilik tug'diringlar, kichiklarni kattalarga, xizmatchilarni boshliqlariga qarshi qayrab qo'yinglar. Dushmaningiz qo'shinlarini kiyim-boshisz, oziq-ovqatsiz qoldirishga harakat qiling. Fe'lini bo'shashtiruvchi musikalarni ishga soling. Tamoman rasvo qilish uchun buzuq ayollarni yuboring. Takalluf, va'dalar va sovg'alarga saxiy bo'ling, uning sirlarini bilish uchun pulni ayamang, chunki bu pullarni qancha ko'p sarflasangiz, shuncha katta foizi bilan o'zingizga qaytadi. Har yerda ayg'oqchilaringiz bo'lsin".

"Xitoy Makkievellisi"ning aytishicha, kimki bu vositalardan foydalana olsa va dushman orasiga nizo urug'in socha olsa, u hokim bo'lishga haqli va davlat uchun chin xazina hamda tayanchdir.

Sun Szi urushlarni uch turga bo'ladi. "Urushning oly san'ati bu – dushman

Keyingi paytlarda aholi orasida tabiiy gaz va gaz uskunalaridan noto'g'ri foydalanish hollarining ko'payishi noxush oqibatlarga olib kelmoqda. Bunday hodisalar soni ayniqsa kuz-qish mavsumida keskin oshib boradi. Xo'sh, biz hademay boshlanajak past haroratli kunlarga tayyormizmi? Isitish moslamalari dudburon, mo'rikon, shamollatish kanallari talabga jayob beradimi?

# QISH ESHIK QOQMASDAN...



Tabiiy gazning to'liq yonmasligi, gaz oqimining bexosdan uzilib qolishi, xona ichida gaz to'planishi, gazni yoqib qarovsiz qoldirish, isitish tizimlariga gazni ulashda xavfsizlik qoidalariiga rioya qilmaslik oqibatida portlash va yong'in sodir bo'lishi hamda tabiiy gaz, is gazlaridan zaharlanish holatlari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi mumkin. Natijada insonlar turli xil tan jarohatlari oladi va hattoki hayotdan ko'z yumadi. Buning oldini olish uchun mutaxassislar tomonidan isitish suv kolonkalariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'minlash; isitish pechlari va mo'rirlarning sozligi tumaningizdagи dudburon va shamollatish tizimini ko'rikdan o'tkazuvchi korxonalar tomonidan tekshirish ishlari amalga oshirish; gaz isitish pechlarining soz holda ishlashini muntazam ravishda nazorat qilish, tunda ularni o'chirib qo'yishni unutmaslik lozim.

Tabiuiy gazdan va gaz isitish asboblaridan xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda foydalanish nafaqat maysum halki doimiy e'tibortalab masala.

DİGGAT IS GAZİİ

Is gazi xonadonlarimizda foydalaniladigan tabiiy gazning to'liq yonmasligi, ko'mir va organik moddalarining chala yonishidan hosil bo'ladi. U inson organizmining nafas yo'llari va nafas a'zolariga kuchli ta'sir qildi. Nafas yo'llari orqali organizmni, xususan markaziy asab tizimini zararlaydi.

Is gazidan zaharlanish uning havodagi konsentrasiysi va ta'sir muddatiga bog'liq bo'lib, bosh qattiq og'rishi, aylanishi, qusish, hushdan ketish hamda nafas olish sekinlashishi kuzatiladi, ba'zan o'limga ham olib keladi. U yengil, o'rta va og'ir darajalarga bo'linadi.

Is gazidan zaharlangan kishini zudlik bilan toza havog olib chiqish zarur. Yuzaki nafas olishdash yoki nafas olish to'xtab qolganda sun'iy nafas oldirish lozim. Agar bemor hushida bo'lsa, tananing yuqori qismi qisib turuvchi kivimlardan bo'shatiladi, issiq cho'y va qabva ichiriladi.

GAZ HIDİ CHIQQANDA...

Xonada tabiiy gaz yig'ilib qolgan holatlarda:

- gaz jo'mraklarini berkitish;
- gazni berkitishning iloji bo'lmasa yoki yorilgan, singan va teshilgan joylar aniqlansa, gaz ta'minoti avariya xizmatiga xabar berish kerak.

## QAYERGA MUROJAAT QILISH KERAK?

Tabiiy va is gazlari bilan zaharlanish holatlari yuz bersa:

- zaharlangan kishiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
  - "103" telefon raqami orqali "Tez tibbiy yordam"ga xabar berish;
  - "104" telefon raqami orqali gaz ta'minoti xizmatiga xabar berish;
  - "1050" Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining avariya-qutqaruv xizmatiga murojaat qilishni yodda tutish zarur.

**Podpolkovnik Zokir KENJAYEV,  
Mudofaa vazirligi yong'in xavfsizligi  
xizmati boshliq'i**

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga  
ko'maklashuvchi "Vatanparvar"  
tashkilotining Xorazm viloyati kengashi  
tasarrufidagi Yangibozor tumani o'quv  
sport-texnika klubi jamoasi tomonidan  
sog'lom fikrli, erkin dunyoqarashga ega  
yoshlarni tarbiyalash borasida muayyan  
ishlar amalga oshirilmogda



# MAVJUD SHAROITLARDAN TO‘G‘RI FOYDALANILMOODA

Xususan, "Vatanparvar" tashkilotining 32 yilligi munosabati bilan "Vatanparvar – mening tanlovim!" shiori ostida turli ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirdi, uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda sport musobaqlari o'tkazilayotganligi shular jumlasidir. Yaqinda tashkil etilgan ochiq eshkilar kuni ham ana shu muhim sanaga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirdilar sirasidan. Unda hamkor tashkilotlar vakillari bilan bir qatorda tumandagi 3-, 22-, 26-umumta'lim maktabalarining yuqori sinf o'quvchilari ham ishtiroy etdi.

— Tadbir avvalida tashkilot kurslarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb qilish hamda kasbga tayyorlash to'g'risida batafsil ma'lumot berildi, — deydi O'STK boshlig'i Bobojon Hasanov. — Shuningdek, tashkilotimiz faoliyati, uning yo'nalishlari, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida tutgan o'rni haqida so'z yuritildi. Tadbirda o'quvchi-yoshlar o'zlarini sizitirg'on, borcha savollarga batafsil javob bldi.

qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob oldi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur klubda so'nggi yillarda yoshlar orasida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" hamda "Duatlon" kabi seksiyalarda ellik nafarga yaqin yosh muntazam shug'ullanmoqda. O'z navbatida, klub a'zolari ushbu sport to'garaklari bo'yicha yaxshi natijalarni egallab kelmoqda.

Bundan tashqari, O'STKda malakali haydovchilarni tayyorlash ishlari ham bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda sifatli tashkil etilgan. Buning uchun o'quv-mashg'ulot xonalari kerakli va zarur jihozlar bilan ta'minlangan. Zamonaviy talablar asosida barpo etilgan avtodrom ham

tinglovchilar ixtiyorida. Ayni paytda bu yerda "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Shuningdek, malaka oshirishni, "C" va "E" toifalarini egallashni maqsad qilganlar uchun qayta tayyorlash kurslari ham faoliyat ko'sratmoqda. Buning uchun o'quv sport-tekhnika klubida bo'lajak haydovchilarga mashg'ulotlarni bilimli va tajribali o'qituvchi hamda amaliy boshqarishni o'rnatuvchi ustalar olib bermeqdagi

Muhimi bu yerda yoshlar orasida kelgusida malakali haydovchilar yetishib chiqishi uchun barcha imkoniyatlar ishga solingan. Bu esa, o'z navbatida, mavjud sharoitlardan to'g'ri va oqilona ravishda foydalani lavotqanligining dalilidir.



# GRIPP



## va boshqa o'tkir respirator kasalliklar



Kuz-qish mavsumida havo haroratining pasayib borishi natijasida ko'pchilikda xalq tili bilan aytganda "shamollah" ya'ni o'tkir respirator kasalliklar, shu jumladan gripp kasalligi ham avj oladi.

Shu sababli biz quyida mazkur kasalliklar to'g'risida, ulardan qanday saqlanish bo'yicha ma'lumot beramiz.

### O'TKIR RESPIRATOR KASALLIKLAR NIMA?

Ushbu kasalliklar asosan havo-tomchi yo'li bilan yuqadigan hamda birinchi navbatda nafas (*ya'ni respirator*) yo'llarini zararlaydigan yuqumli kasalliklar hisoblanib, isitma, tumov, yo'tal va tomoqda og'riq kabi belgilar bilan kechadi. Kasallik qo'zg'atuvchilari asosan viruslar, ba'zan esa bakteriyalar ham bo'lishi mumkin. Ushbu yuqumli kasalliklardan eng xavfisi bu gripp bo'lib, shu sababli gripp va boshqa o'tkir respirator infeksiyalar deb nomlanadi.

### GRIPP QANDAY KASALLIK?

Gripp – viruslar keltirib chiqaradigan o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, tananing umumiylari zaharlanishi, nafas a'zolarining, asosan yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi bilan kechadigan kasallik hisoblanadi. Kasallik ba'zi hollarda epidemiyaga ko'rinishida tus olib, har yili millionlab odamlarni shikastlaydi.

### U SOG'LOM ODAMGA QANDAY YUQADI?

Grippning sog'gom odamga bermor aksirganda, yo'talganda, gapirganda, o'pishtirganda va bermor foydalangan buyumlarni ishlatganda yuqadi. Viruslar havo orqali 2-3 metr masofagacha tarqaladi. Havoda so'lak tomchilarida hayot faoliyatini 4-5 soat davomida saqlab qoladi. Buyumlar yuzasida esa 3-4 kungacha yashab qolishi mumkin.

### KASALLIKNING YASHIRIN DAVRI

Gripp kasalligining yashirin davri juda qisqa bo'lib, bir necha soatdan 1-2 kungacha davom etadi. Yashirin davrning davomiyligi inson organizmiga tushgan viruslar miqdori, immun tizimining shu vaqtgagi holati va boshqa shu kabi bir necha omillarga bog'liq.

### QANDAY BELGILARI BOR?

Kasallikning boshlanishida bemorning kayfiyati yomonlashadi, et uvishishi, umumiylari holsizlik, tanasida, shuningdek qo'va oyoqlarida zirqirab og'rish paydo bo'ladi. Tana harorati ko'tariladi, bosh og'rig'i va yo'tal bezovta qiladi.

Ba'zi hollarda esa kasallikning birinchi soatlardan boshlab qaltirash, tana haroratining ko'tarilishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, quşish, ko'z olmasining og'rishi, yorug'likka qaray olmaslik, terlash kabi belgilari ham paydo bo'ladi. Isitma 39-40 °Cga qadar ko'tarilishi mumkin.

### KASALLIKNING BELGISIZ SHAKLLARI HAM UCHRAYDIMI?

Albatta, grippning klinik belgilari kam ifodalangan yoki umuman sog'gom shakldagi kasallikni o'tkazish holatlari ham mavjud. Ba'zan gripp yengil shaklda o'tadi, tana haroratining ko'tarilishi, lohaslik, keyinroq esa yo'tal va tumov belgilari namoyon bo'la boshlaydi.

Ayrim bermorda kasallik faqatgina biroz bosh og'rig'i bilan kechib, tana harorati me'yorida bo'ladi, shamollah belgilari bo'lmaydi. Lekin bu bermorda ham ma'lum muddat boshqalarga virus tarqatib turishadi.

### QANDAY ASORATLARI MAVJUD?

Eng xavfli asoratlaridan o'pka to'qimalarining yallig'lanishi – pnevmoniya, miya pardalarining yallig'lanishi – meningit, meningoensefalit, qulog to'qimalarining yallig'lanishi – otit, burun bo'shilqlarida yallig'lanishlar – sinusit, shu jumladan gaymorit, buyruk to'qimalarining yallig'lanishi – piyelonefrit kabi asoratlarning yuzaga kelishi bilan xavflidir. Shuningdek, o'pka sili, revmatizm va boshqa kasalliklarning qaytalanishiga sabab bo'ladi.

### KASALLIKKA QARSHI EMLASH QANCHALIK SAMARALI?

Yuqumli kasalliklarga qarshi eng yaxshi profilaktika bu emlashdir. Vaksina grippning ushbu mavsumda eng ko'p uchrashi kutilayotgan va eng xavfli hisoblanayotgan 3-4 ta shammiga qarshi qaratilgan bo'lib, emlash ushbu shtammlar bilan organizm to'qnash kelganida kasallikdan himoyalashga qaratiladi. Mudofaa vazirligi tizimida ham mavsumiy grippga qarshi emlash ishlari ham olib borilmoqda.

O'rganilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra emlanmagani jamoalarda emlangan jamoalarga nisbatan 3-4 baravar ko'p kasallanish holatlari, shuningdek asoratlar qayd etilgan.

### GRIPP KASALLIGI PROFILAKTIKASI YUZASIDAN NIMALAR TAVSIYA QILINADI?

Gripp va boshqa o'tkir respirator infeksiyalar bilan kurashishda kasallikni erta aniqlash, erta tashxis qo'yish va jamoada alohidatalash muhim o'rinni kasab etadi.

Odam o'zini va atrofdagilarni kasallikdan himoya qilish uchun:

- \* o'tkir shamollah (*tumov*) belgilari paydo bo'lganda mustaqil turli dori vositalarini qabul qilmasdan zudlik bilan shifokorga murojaat qilish;

- \* yo'talganda va aksirganda og'iz va burunni toza dastro'mol bilan berkitchish;

- \* bermorlar bilan mulloqotda bo'imaslik. Zaruratga ko'ra bermorlar bilan mulloqotda bo'lganda, albatta niqob taqish;

- \* ko'chadan kirganda va ovqatlanishdan oldin qo'llarni sovunlab yuvish;

- \* piyoz va sarimsoq piyoz kabi fitonsidlarni iste'mol qilish;

- \* tanani sovgotishdan saqlash, ayniqsa, kiyim-kechaklarni va oyoqni quruq, issiq tutish;

- \* mavsum oldidan grippga qarshi profilaktik emlash olish zarurdur.

Bundan tashqari harbiy jamoalarda esa yuqorida qayd qilib o'tilganlardan tashqari quyidagi chora-tadbirlarga roya qilish muhim hisoblanadi:

- \* askarlar yotoqxonalari uyqudan oldin va uyqudan keyin, mashg'ulot o'tish xonalari mashg'ulotlardan oldin va ular orasida (*tanaffuslarda*) shamollahish;

- \* pol, deraza tokchalar, isitish batareyalarini va mebellarni nam usulida artish;

- \* yopiq xonalarda o'tkaziladigan tadbirlarni (*yig'inlarni*) kamaytirish;

- \* shaxsiy tarkibni texnikada tashishda, hammomda yuvilingandan keyin, qorovullik xizmatida va dala sharoiti mashg'ulotlarida sovgotishdan saqlash;

- \* yotoqxonalarda qurish xonalari, dala o'quv mashg'ulotlari o'tkazish joylarida isinish punktlari tashkil qilish;

- \* savdo, oziq-ovqat tarmoqlarida, davolash – profilaktika muassasalarida niqob taqishni tashkil etish;

- \* shaxsiy tarkibning niqob taqib yurishini nazoratga olish;

- \* harorati ko'tarilganlarni tezda alohidatalash va mutaxassis ko'rígiga olib borish;

- \* organizmni chiniqtirishga, badantarbiya bilan muntazam ravishda shug'ullanishga, toza havoda sayr qilish va toza havodagi ertalabki badantarbiyaga alohida katta e'tibor qaratish.

Yoqorida ko'rsatilgan tadbirlar Mudofaa vazirligining buyruq, farmoyish va boshqa hujjalardan ham o'z aksini topgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan maslahatlar to'la-to'kis amalga oshirilsa gripp va o'tkir respirator infeksiyalarini shaxsiy tarkib orasida tarqalishining oldini olgan bo'lamiiz.

**Tibbiy xizmat katta leytenant F. NIYOZOV,**  
**O'R MV Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi**  
**epidemiologiya bo'linmasi katta vrach mutaxassis**

# Jangovar ruh – JANGCHINING QUDRATLI QUROLI



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanparvar" gazetasi va "O'zbekiston armiyasi" jurnali o'quvchilar, harbiy xizmatchilar, jurnalist, yozuvchi va professional ijodkorlar o'tasida jangovar ruhni oshirish, milliy armiyamiz qo'shinlarining harbiy qudrati, jangovar safarda xizmat qilayotgan Vatan himoyachilarining fidoyiliqi, jasorati, xizmat vazifasini bajarish chog'iда qahramonlarcha halok bo'lgan yigitlar xotirasini abadiylashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning yuksak ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik sifatlarini oshirish, ular qalbida Vatanga muhabbat, Qurolli Kuchlardan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuquq hurmat tuyg'ularini kamol toptirish, ulug' sarkardalarimiz hayoti va faoliyati, qahramonliklari, boy merosini targ'ib qilish orqali harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyanati "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" deb nomlangan publisistik maqolalar tanlovini e'lon qiladi.

## TANLOV SHARTLARI

Taqdim etilgan ijodiy ishlari 2023-yilning 29-sentabridan 2023-yilning 15-dekabrigacha (*Word shaklida, 14 shriftda, kirill yoki lotin alfibusida*) "Vatanparvar" birlashgan tahririyaniga yuborilishi lozim.



**Manzil:** 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.  
Elektron manzil: [vatanparvar-bt@mail.uz](mailto:vatanparvar-bt@mail.uz) yoki telegram manzili (90) 968-62-08.

Quyidagi hujjatlari ilova qilinishi lozim:  
– muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;  
– muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;  
– muallifning xizmat (*ish*) joyi.



**Murojaat uchun telefonlar:**  
(71) 260-36-50, 260-32-57.

Eng sara ijodiy ishlari "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" tanlovi rukni ostida chop etiladi.

## G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH

G'oliblar quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:  
1-o'r'in (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 25 (*yigirma besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;  
2-o'r'in (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;  
3-o'r'in (3 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;  
rag'batlantiruvchi mukofotlar (5 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom va kitoblar to'plami.

Natijalar "Vatanparvar" gazetasi va saytida hamda [mudofaa.uz](http://mudofaa.uz) saytining telegram kanalida e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlariga mukofotlar 2024-yil Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshiriladi.

"Vatanparvar"  
birlashgan tahririyanati

**OBUNA - 2024**

"Vatanparvar" gazetasi  
nashr ko'rsatkichi – 114  
"O'zbekiston armiyasi" jurnali  
nashr ko'rsatkichi – 1273

**@Vatanparvargazetasi\_bot**  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyanati bilan bog'lanish uchun telegram bot

## QUYIDAGI MASALALAR BO'YICHA MEROJAATLARINGIZ BO'LSA, QO'NG'IROQ OILING:



- psixologik qo'llab-quvvatlash;
- oilaviy munosabatlar;
- shaxs sifatida rivojanish;
- psixologik maslahat olish;
- nizoli masalalar bo'yicha psixologik yordam ko'rSATISH;
- bolalar psixologiyasi;
- stressli vaziyatlar.

HAL QILIB BO'LMAJDIGAN MUAMMO YO'Q,  
HAR QANDAY VAZIYATDAN CHIQISHNING  
MUNOSIB YO'LI BOR!



**SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI**

<b>VATANPARVAR</b>	<b>MUASSIS</b>	<b>Tahririyat kengashi:</b> general-major Hamdam Qarshiyev polkovnik Otabek Yuldashev polkovnik Alisher Boboxonov Maqsud Abilov	<b>Bosh muharrir vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi:</b> podpolkovnik To'lqin Jumanazarov	<b>Navbatchi:</b> podpolkovnik Gulnora Hojimurodova <b>Sahifalovchi:</b> Begali Eshonqulov <b>Musahih:</b> Mastura Qurbonova	<b>Gazeta juma kuni chiqadi.</b> Gazeta 1992-yilning 24-iyundan chiqa boshlagan. <b>Nashr ko'rsatkichi:</b> 114. <b>Bahosi:</b> Kelishilgan narxda. <b>"O'zbekiston"</b> nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. <b>Bosmaxona manzili:</b> Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.
	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI</b>	Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqziq qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyanat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyanating kompyuter markazida sahifalandi.	<b>ISSN 2010-5541</b> Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan. <b>Telefonlar:</b> kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo'lim: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29	<b>Buyurtma:</b> V-5636 <b>Hajmi:</b> 6 bosma taboq <b>Bichimi:</b> A3 <b>Adadi:</b> 31 047 nusxa <b>Bosishga topshirish vaqt:</b> 14:00 <b>Topshirildi:</b> 14:30  <b>Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.</b> <b>Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiha "O'zbekiston" NMU mas'ul.</b>	<b>1 2 3 4 5 6</b> <b>Manzilimiz:</b> 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.